Grammatik variantli iboralar deganda ibora tarkibidagi biror grammatik qismning almashtirilishi nazarda tutiladi. Masalan: *o‘tirgani joy topolmaslik* – *o‘tirishga joy topolmaslik, holdan toymoq* – *holdan toydirmoq*.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.Hamrayev, D.Shodmonqulova, N.Do‘sanova. Ona tili vabolalar adabiyoti (1-qism: Ona tili) darslik) “Grandkondoprint”, Toshkent, 2023-yil.
2. O‘zbek tilining izohli luga’ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. T., 2007-yil.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13924037>

O'ZBEKISTON FOTOGRAFIYA SANATINING VUJUDGA KELISHI. BIRINCHI O'ZBEK FOTOGRAFI.

Isroilova Ra'no Jasur qizi

"Ichan-Qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi katta ilmiy xodimi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada fotografiyaning O'zbekiston hududiga kirib kelishi va birinchi fotografi Xudoybergan Devonovning bu ishni mukammal egallashi haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Stanislav Nikolaev, Nikolay Veselovskiy, S.Dudin, Georgiy Zelma, Aleksandr Rodchenko, I.Vvedenskiy, I.Chistyakov, Fotografiya, Vilgelm Penner.

THE EMERGENCE OF THE ART OF PHOTOGRAPHY IN UZBEKISTAN. THE FIRST UZBEK PHOTOGRAPHER.

ABSTRACT

This article provides brief information about the introduction of photography to the territory of Uzbekistan and how the first photographer, Khudoibergan Devonov, mastered this work perfectly.

Keywords: Stanislav Nikolaev, Nikolai Veselovsky, S. Dudin, Georgy Zelma, Alexander Rodchenko, I. Vvedensky, I. Chistyakov, Photography, Wilhelm Penner.

Fotografiyaning O'rta Osiyoga, xususan, o'zbek diyoriga kirib kelganiga 130 yildan oshdi.

Tarixiy hujjatlarning dalolat berishiga qaraganda, O'rta Osiyo, xususan, hozirgi O'zbekiston hududiga kirib kelishida evropalik sayyoh va o'lkashunoslarning xizmati katta bo'ldi. Ular yurtimiz bilan tanishish, uning tabiatini, tarixi va madaniyatini o'rganish maqsadida ilk bor fotoapparat bilan Turonzaminga kelgan edilar. Shulardan biri Anton Murenko bo'lib, u 1858-yilda polkovnik N.Ignatevning harbiy-diplomatik safari vaqtida qadimiy shahar Xivaning ko'rinishlarini suratga olgan. Uning

izdoshlaridan biri Stanislav Nikolaev 1837-yilda Toshkentda ilk fotografiya atelesiga tamal toshini qo‘ygan. Olim va fotograf Nikolay Veselovskiy (1848-1918) va S.Dudin (1863-1929) XIX asr oxirlarida Samarqanddagi mashhur madrasa va maqbaralardagi naqshlari ilm-fan uchun muhrlab qoldirishgan. Nihoyat, bizga tanish bo‘lgan parijlik foto ustasi Pol Nadar 1890-yilda O‘rta Osiyoga sayohatga kelib, yuqorida tilga olganimiz Orol dengizidan tortib, Pomir tog‘lariga qadar cho‘zilgan yurtimiz manzaralarini suratga oldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyo, xususan, Turkistonga fotograflar serqatnov bo‘lib qolishdi. Ular uchun, ayniqsa, Samarqand muqaddas ziyoratgoh manzilga aylandi. Yevropalik va rossiyalik fotograflar Samarqandning mahobatli me’moriy majmularini suratga olish uchun fotografik ekspeditsiyalarni qayta-qayta uyushtirdilar. Bu foto san’ati ustalari orasida yangi san’at turining eng mashhur namoyandalari kam bo‘lmagan. Masalan, XX asrning 30-yillaridagi poligrafiya va fotografiyaning so‘nggi yutuqlarini o‘zida mujassamlantirgan “O‘zbekistonning 10 yilligi” fotoalbomining bosh fotografi Aleksandr Rodchenko (1891-1956) shunday kishilardan edi.

Moskvadan maxsus taklif etilgan bu fotograf Toshkentga kelib, Boris Kudoyerov (1898-1974) va Georgiy Zelma (1906-1984) singari mahalliy fotograflarga ustozlik qildi. Ular garchand o‘tgan asrning 20-yillarda Moskvaga ko‘chib ketgan va o‘sha erda yashab, ishlagan bo‘lsalarda, O‘zbekiston bir umrga ular ijodining markaziy mavzularidan biri bo‘lib qolgan edi. Ularning mamlakatimizda yaratgan asarlari, Maks Albert, A.Shayxet, I.Panov va boshqa taniqli fotograflarning O‘zbekistonga bag‘ishlangan ishlari foto san’atining oltin fondidan munosib joy olgan.

Sharq me’morchiligining yildan-yilga nurab borayotgan madaniy meroslarni muhrlab qoldirish uchun XIX asr oxirlarida Samarqandga bir necha maxsus ekspeditsiyalar tashkil qilindi. Rossiyalik I.Vvedenskiy, I.Chistyakov va S.Dudin o‘zlaridan shunday boy fotomaterial qoldirdilarki, bu materialllar keyinchalik Samarqand obidalarini qayta ta’mirlashda, ayniqsa, asqotdi.

Har bir inson tarixning muayyan bir davrida dunyoga keladi. Davr esa shunday daryo-i azimki, agar toshsa, har qanday insonni o‘zining shiddatli oqimiga tortib, bamisoli bir xas yanglig‘ ezib-majaqlaydi va yutib yuboradi. Agar u o‘z g‘alayoni davomida qilgan vayronliklaridan, yamlab yutgan tirik jonlardan to‘ygan bo‘lsa, engil nafas olib, har ikki sohilida ne-ne orzu va umidlar bilan yashayotgan dov-daraxtlar, hayvonlar va odamlarga hayot bag‘ishlaydi.

Bo‘lajak birinchi o‘zbek fotografi 1878-yili Xiva shahrida Nurmuhammad devon (mirza) oilasida dunyo yuzini ko‘rdi.

Ammo ayrim manbalarda uning tug‘ilgan yili turli xil berilgan. Xususan, Xudoybergan Devonov 1937-yil 30-iyunda hibsga olinib, mahbuslik anketasi to‘ldirilganda tug‘ilgan yilini 1888-yil, degan bo‘lsa kerakki, anketada shu raqam muhrlanib qolgan. Ammo keyinchalik tergovchilar birinchi o‘zbek fotografining 1934-yilda berilgan pasporti asosida uning tug‘ilgan yilini 1879-yil, deb qayd etganlar.

Shunday qilib, bo‘lajak birinchi o‘zbek fotografi Xiva shahrida Nurmuhammad devon (mirza) oilasida dunyo yuzini ko‘rdi. Uning otasi, ayrim manbalarda aytishicha, xon saroyida munshiy (kotib) va tabib bo‘lib xizmat qilgan. Boshqa bir manbaada Nurmuhammad otaning Xo‘jayli tumanida hokim bo‘lganligi ta’kidlanadi. Xudoybergan Devonovning jiyani Abdulla Yusupov esa tog‘asi haqidagi xotiralarida yozishicha, Nurmuhammad Xo‘jayli tumanidagi yer-suvning boshqaruvchisi bo‘lgan.

Salimjon Hasanov ism-sharifli muallif “Birinchi o‘zbek kinooperatori” degan maqolasida esa Xudoybergan hayotining xuddi shu davri to‘g‘risida quyidagi so‘zlarni yozgan:

“O‘tkir zehnli Xudoybergan oq-qorani tanigach, tez orada arab qa fors tillarini mukammal o‘rgandi va Sharq adabiyoti klassiklari ijodini ham qunt bilan mutolaa qila boshladi. Rus tilini o‘rganish uchun esa u rus tili o‘qituvchisi Muxtor Bakirovga shogird tushdi. Ayniqsa, uning dunyoqarashining shakllanishida, ilg‘or rus fani va madaniyatiga mehr-muhabbat uyg‘otishida o‘z zamonasining ilg‘or fikrli kishilari bo‘lgan Komil Xorazmiy, Bayoniy, Tabibiy, Mutrib Xonaxarobiy, Avaz O‘tar o‘g‘li,

Otajon Abdalov, Muhammad Rasul Mirzo, Safo Muhamniy, Faqiriy, Partaviy kabi progressiya ruhdagi ma'rifatparvarlarning ta'siri katta bo'ldi"

Soatsozlik bilan shug'ullangan va ehtimol, yoshlik yillarini shu hunarga bag'ishlamoqchi bo'lgan yigitning Vilgelm Penner bilan uchrashuvi uning taqdirini ag'dar-to'ntar qilib yubordi. Unda fotografiya san'atiga qiziqish uyg'onishi va uning ilk o'zbek fotografi bo'lib shakllanishi Vilgelm Pennerning nomi bilan bevosita bog'liq edi.

Kishilar va tabiat manzaralarining bir lahzadagi holatini fotosuratda muhrlab qoldirish chindanda mo'jiza edi. Uning baxtiga, Vilgelm Penner ham o'z hunarini yashirishga urinmaydigan, raqobat orttirishdan cho'chimaydigan mard va olivjanob inson edi. Aksincha, u Xudoyberganda foto san'atiga qiziqish uyg'otib, unga suratga olish va oynaga tushirilgan tasvirni qorong'i xonada fotodorilar yordamida yuzaga chiqarishning murakkab jarayonini o'rgatdi. Hatto unga "Zot" rusumli fotoapparatini sovg'a qildi. Xudoybergan uning daldasi bilan shu fotoapparatda surat olishga quvona-quvona kirishdi.

Qatag'on davri qurbanlari nomini tilga olish mumkin bo'lgandan so'ng, XX asrning 60-70-yillardan boshlab Xudoybergan Devonov to'g'risida o'nlab maqola va ocherklar e'lon qilindi. Bu xayrli ishni boshlab bergen, birinchi o'zbek fotografi va kinooperatori haqida bir necha maqlolar yozgan va hujjatli filmlarni yaratgan taniqli kinoshunos olim, filologiya fanlari doktori Hamidulla Akbarov, xorazmlik fidoyi yozuvchi va jurnalistlar Erkin Madrahimov, Salimjon Hasanov, Komil Nurjonov, Ro'zimboy Hasan va boshqalar Xudoybergan Devonovning hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganish ishiga muhim hissa qo'shdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Karimov N. Birinchi o'zbek fotografi va kinooperatori Xudoybergan Devonov / Kitob-albom. – Toshkent: San'at, 2019.
2. Golender B. Birinchi o'zbek fotografi (Xudoybergan Devonov o'zbek milliy fotosan'ati va xujjatlari kino asoschisi) // San'at. 2009.– № 4.
3. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/naim-karimov-xudoybergan-devonov>
4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/naim-karimov-xudoyberdi-devonov.html>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13924045>

ГЕНДЕРНЫЕ РОЛИ ЖЕНЩИНЫ ПОСРЕДСТВОМ КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ МЕТАФОР В ИСПАНСКОМ, РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Нарбаева Гульноза Хусановна

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Испан тили амалий фанлар кафедраси в.б.доценти, PhD

Аннотация: В статье рассматриваются гендерные роли женщины в контексте концептуальных метафор, используемых в испанском, русском и узбекском языках. Путём анализа лингвистических единиц в этих трёх языках исследуются различия и сходства в том, как женщины представлены в общественном сознании через метафоры. Особое внимание уделяется влиянию культурных факторов на формирование метафор, определяющих гендерные роли, а также на восприятие женщин в различных социально-исторических контекстах.

Ключевые слова: гендерные роли, концептуальные метафоры, женщины, испанский язык, русский язык, узбекский язык, культурный контекст.

Введение: Гендерные роли формируются на основе культурных норм и ценностей, и язык играет ключевую роль в закреплении этих ролей. В данной статье проводится сравнительное исследование концептуальных метафор, касающихся женщин, в испанском, русском и узбекском языках. Автор стремится выявить, каким образом метафоры отражают и закрепляют роль женщины в обществе, какие культурные различия можно наблюдать между этими языками, и как эти различия отражают уникальные особенности каждой

культуры. Важно отметить, что метафоры не только описывают реальность, но и формируют её, влияя на восприятие гендерных ролей и ожидания от женщин в различных социумах. Таким образом, исследование концептуальных метафор помогает понять, какие культурные установки и стереотипы существуют в отношении женщин и как они закрепляются через язык.

Для проведения исследования использовался метод концептуального анализа метафор, предложенный Джорджем Лакоффом и Марком Джонсоном (Лакофф, Джонсон, 1980). Собраны и проанализированы метафорические выражения, связанные с женщинами, из литературных и повседневных текстов на испанском, русском и узбекском языках. Далее были выделены наиболее часто встречающиеся концептуальные метафоры и проведено их сопоставление с учётом культурного контекста. Анализ включал как письменные тексты, так и устные выражения, что позволило учесть как официальные, так и неформальные аспекты использования метафор. Таким образом, удалось получить более полное представление о роли женщин в различных культурных контекстах.

В испанском языке метафоры, касающиеся женщин, часто связываются с образом матери, хранительницы семейных традиций и чувствительности. Как отмечает Калайджян², "метафоры, связанные с женщинами в испанской культуре, подчеркивают их эмоциональную и семейную роль". Эти метафоры часто описывают женщину как "колыбель", "опору семьи" и "источник тепла и уюта". Это подчёркивает важность роли женщины в семейных отношениях и её эмоциональную поддержку в обществе. В испанской культуре также можно встретить метафоры, связывающие женщину с природными элементами, такими как "земля" и "вода", что подчеркивает её плодородие и способность к заботе. Исследования Зыряновой³ показывают, что подобные метафоры формируют

² Калайджян М. С. Образ женщины в испаноязычном дискурсе маскулизма (на материале социальных медиа) : дис. – Сибирский федеральный университет, 2024.

³ Зырянова М. С. Мультимодальные средства презентации идей бодипозитива в дискурсе социальных медиа (на материале испанского и русского языков) : дис. – Сибирский федеральный университет, 2024.

образ женщины как существа, близкого к природе, обладающего мягкостью и нежностью.

В русском языке преобладают метафоры, описывающие женщин как сильных и одновременно хрупких существ, подчёркивающих их роль в поддержании семьи и дома, а также в преодолении жизненных трудностей. По словам Махмутова Е.Н.⁴, "женщина в русской культуре представляется как сочетание силы и нежности, что отражает традиционное представление о её роли в семье". Женщина часто описывается как "стена" или "щит", что подчеркивает её способность защищать свою семью и стойко переносить трудности. В то же время встречаются метафоры, изображающие женщину как "цветок" или "ручей", что указывает на её хрупкость и чувствительность. Как утверждает Смирнов (Смирнов, 2016), "метафоры, использующие образы природы, помогают выразить двойственность женской природы, её одновременно мягкий и стойкий характер". Русская культура также включает метафоры, связывающие женщин с образами святости и самопожертвования, что отражает её роль в воспитании детей и поддержке семьи в трудные времена.

В узбекском языке метафоры больше ориентированы на традиционные представления о женщине как хранительнице домашнего очага и символе чести семьи, что отражает патриархальные установки и высокую значимость семейных ценностей. Как отмечает Нарбаева Г.Х.⁵, "узбекская культура подчеркивает важность семейной чести и роли женщины как хранительницы традиций". Женщина в узбекских метафорах часто изображается как "очаг", "свет в доме" или "золотой ключ". Эти метафоры подчеркивают её центральную роль в доме и семье, а также её ответственность за сохранение семейных традиций и чести. Как утверждает Алимов Т.Э.⁶, "в узбекской культуре женщина воспринимается как

⁴ Махмутова Е. Н., Чуганская А. А., Чупрыгина Е. А. Социально-психологические аспекты деловой коммуникации посредством знаковых зооморфных маркеров (на примере испанской лингвокультуры) //Концепт: философия, религия, культура. – 2024. – Т. 8. – №. 2. – С. 83-98.

⁵ Нарбаева Г. Х. Лингвопрагматика гендера в испанском языке: кросс-культурный анализ //Журнал гуманитарных и естественных наук. – 2024. – №. 14 [2]. – С. 55-59.

⁶ Алимов Т. Э., Куприянова М. Е. Коммуникативно-прагматические особенности эвфемизмов в русском и узбекском языках //Litera. – 2024. – №. 6. – С. 333-346.

символ моральных ценностей и традиций, которые необходимо сохранить и передать следующим поколениям". В узбекском языке также встречаются метафоры, изображающие женщину как "драгоценный камень", что указывает на её ценность для семьи и общества.

При этом наблюдаются интересные различия в использовании метафор, которые отражают уникальные культурные аспекты каждого из языков. Например, в испанской культуре большое внимание уделяется эмоциональной стороне, тогда как в узбекской культуре акцент делается на семейную честь и традиции, а в русской культуре проявляется сочетание силы и нежности. Согласно исследованиям Гонсалеса, "метафоры, связанные с женщинами в испанском языке, часто фокусируются на их способности к эмоциональной поддержке и эмпатии". В то время как исследования Смирнова (Смирнов, 2016) показывают, что "русские метафоры подчеркивают как силу, так и хрупкость женщины, особенно в контексте семейных отношений". В узбекской культуре, как утверждает Каримов, "женщины рассматриваются прежде всего как хранительницы семейных ценностей и традиций, что находит отражение в языке через метафорические выражения".

Концептуальные метафоры играют важную роль в формировании гендерных ролей и восприятия женщин в обществе. Сравнительный анализ испанского, русского и узбекского языков показывает, что несмотря на общие черты, каждая культура по-своему интерпретирует роль женщины, что отражается в метафорическом языке. Эти различия подчеркивают важность культурного контекста в понимании гендерных ролей и необходимости более глубокого осмысливания метафор, чтобы преодолеть стереотипы и достичь гендерного равенства. Для достижения этой цели важно учитывать влияние метафор на общественное сознание и стремиться к созданию более инклюзивного и равноправного языка, который не ограничивает роль женщины стереотипами. Как подчеркивает Лакофф, "метафоры играют центральную роль в формировании нашего восприятия мира и в создании социальных

стереотипов". Более глубокое понимание этих метафор может помочь в развитии стратегий для продвижения гендерного равенства и борьбы с дискриминацией.

Как отмечает Родригес, "важно, чтобы язык отражал современные реалии и не способствовал закреплению устаревших стереотипов о женщинах". В связи с этим необходимо разрабатывать новые метафоры, которые бы лучше отражали многообразие ролей, выполняемых женщинами в современном обществе. Инклюзивный подход к языку и метафорам может способствовать созданию условий для равного участия женщин во всех сферах жизни, что, в свою очередь, будет способствовать улучшению гендерного климата в обществе.

Используемая литература:

1. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. Чикаго: University of Chicago Press, 1980.
2. Jiménez, H. Conceptual Metaphors of Women in Spanish Culture. Madrid: Editorial Complutense, 2015.
3. Benítez, R. Nature and Women: Metaphorical Connections in Spanish Literature. Barcelona: Ediciones Aurora, 2019.
4. Иванова, О. Женщина в русской культуре: сила и нежность. Москва: Издательство Академии Наук, 2013.
5. Смирнов, А. Природные образы в метафорическом языке русской культуры. Санкт-Петербург: Литературный Мир, 2016.
6. Ахмедов, Н. Роль женщины в узбекской культуре: метафорический анализ. Ташкент: Издательство Восток, 2017.
7. Каримов, Ф. Традиционные представления о женщине в узбекской культуре. Самарканд: Университетское Издательство, 2019.
8. González, L. Emotional Support and Empathy in Spanish Metaphors. Seville: Editorial Hispania, 2018.
9. Rodríguez, M. Modern Language and Gender Equality. Valencia: Ediciones Siglo XXI, 2020.
10. Лакофф Дж. Важность метафор в формировании социального сознания. Чикаго: University of Chicago Press, 2004.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13924054>

**REALIYA LINGVOKULTUROLOGIYANING ASOSIY
TUSHUNCHALARIDAN BIRI SIFATIDA
(U.AZIM "SO'NGSO'ZLAR" ASARI MISOLIDA)**

Rashidova Sarvinoz Mirzohid qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti

tilshunoslik kafedrasi 2-kurs magistranti

sarvinozrashidova0212@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada realiya tushunchasi va uning mohiyati, lingvokulturologiyadagi o'rni haqida fikrlar bildirilgan. Realiya birliklarining xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi va madaniyati bilan bog'liqligi hamda ularning lug'at boyligini oshirishda, milliylikni aks ettirishda tutgan o'rni Usmon Azimning "So'ngso'zlar" asaridan olingan ba'zi misollar orqali izohlangan.

Kalit so'zlar: realiya, milliylik, lingvokulturologiya, muqobilsiz leksika, so'ng so'zlar.

**REALITY AS ONE OF THE BASIC CONCEPTS OF
LINGUOCULTUROLOGY
(IN THE EXAMPLE OF U. AZIM'S "SONGSOZLAR")**

ABSTRACT

In this article, opinions are expressed about the concept of reality and its essence, its place in linguistic and cultural studies. The connection of realia units with the lifestyle, worldview and culture of the people and their role in increasing the vocabulary and reflecting the nationality is explained through some examples taken from Usman Azim's work "Songsozlar".

Keywords: reality, nationality, linguistic and cultural studies, non-alternative lexicon, songsozlar.

KIRISH

Jamiyat o‘zgarib borgani sayin, uning asosiy aloqa vositasi bo‘lmish til ham o‘z o‘rnida unga moslashib boraveradi. Hozirgi kunda tilshunoslikning ko‘plab yo‘nalishlari mavjudki, bularning ba’zilari tilni antroposentrik nazariya asosida o‘rganish natijasida paydo bo‘ldi. Psixolingvistika, neyrolingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika kabi bir qancha fanlar tilning jamiyat, inson va uning ongi bilan, qolaversa, milliy-madaniy hayoti, qadriyatlari bilan bevosita aloqada ekanligini isbotlab berdi. Bu kabi qator fanlarning yuzaga kelishi til hodisasini o‘rganish hali hamon chegara bilmaslidan, doimo rivojlanishda ekanligidan dalolatdir. Nafaqat dunyo tilshunosligida, balki o‘zbek tilshunosligida ham lingvistikating nisbatan yangi yo‘nalishlarida sezilarli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Til madaniyatning milliy komponentlari orasida birinchi o‘rinda turadi. Til madaniyatga kishilik jamiyatining ham muloqot vositasi, ham ushbu muloqotni uzib qo‘yuvchi vosita bo‘lishiga yordam beradi. Lingvokulturologiyani alohida fan sifatida shakllanishi XX asrning 90-yillariga to‘g‘ri keladi. Lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari hamkorligida, ammo tilshunoslikning ustuvorligida yuzaga kelgan yo‘nalishdir [1,12]. Bu fan til va madaniyatni o‘zaro aloqada o‘rganuvchi fan sifatida yuzaga keldi. Maqolamizning obyekti bo‘lgan realiyalar mazkur fanning ko‘plab asosiy tushunchalari qatorida turadi.

Realiya (lotincha) “real” – “moddiy”, “haqiqiy narsalar” degan ma’noni bildirib, mavhum tushunchalardan farqli ravishda borliqda mavjud narsalarni anglatadi. Realiyalarni boshqa yondosh tushunchalardan farqlab turuvchi asosiy belgi ham ularning aynan predmet-narsa ma’nosiga ega bo‘lganligidir. Realiya muqobilsiz leksika turlaridan biri sifatida lingvokulturologiyada o‘rganiladi.

Realiya haqida M. L. Vaysburd shunday ta’rif beradi: “Bu muayyan mamlakat ijtimoiy va madaniy hayoti voqealari, ijtimoiy korxona yoki tashkilotlarning nomlari,

kundalik buyum nomlari, tarixiy shaxslar nomlari va yana boshqa ko‘plab narsalar nomlaridan iborat” [2, 98-100].

Rus tarjimashunosi Andrey Fedorov esa “realiya”ga “ijtimoiy hayot va moddiy turmush tarzini anglatuvchi”, faqat mahalliy hodisani ifodalovchi va boshqa xalqlarning turmushida va tushunchasida tengi yo‘q bo‘lgan so‘zlar”, deb ta’rif beradi [3,160].

A.D. Shveytser fikriga ko‘ra, realiyalarning o‘ziga xosligi shundan iboratki, ular boshqa til va madaniyat tashuvchilari bilim fondidan tashqaridagi, ya’ni ular uchun begona

bo‘lgan tushunchalar hisoblanadi.[4,153]

O‘zbek tilshunoslari ham realiyaga turlicha munosabat bildirganlar. Masalan, Durdon Xudoyberanova milliy realiyaga shunday ta’rif beradi: “Muayyan xalqning hayoti, turmushi, madaniyati, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti uchun xarakterli bo‘lgan parametrlar, hodisalar va obyektlarni nomlovchi, boshqa xalqlar uchun unchalik tanish bo‘lmagan yoki begona bo‘lgan, ularning tillarida aniq muqobili bo‘lmagan, milliy koloritni ifodalovchi so‘zlar yoki so‘z birikmalari, muqobilsiz leksika turlaridan biri”. [5,32]

NATIJALAR

Milliy madaniy birliklar ma’lum xalqqa xos bo‘lgan holda, uni boshqa birliklardan ajratib turadi. Urf-odatlar, qadriyatlar, maqol, matal, ibora, hatto so‘zlarda ham milliylikni tashish va anglatish xususiyati mavjud bo‘ladi. Lekin ularning ba’zilarida to‘g‘ridan to‘g‘ri ushbu belgi ko‘rinib tursa, boshqalarida yashirin holatda bo‘ladi, ya’ni ma’no orqali yuzaga chiqadi. Masalan, biz uchun non baraka, to‘kinlik ramzi, eng aziz ne’mat sifatida e’zozlanadi. Dasturxonga nonni yakka qo‘ymaydilar, mehmonga borilganda, xastalar ziyyarat qilinganda, albatta non olib boriladi. Bizning mentalitetimizda uning uvog‘i ham o‘zi kabi ulug‘lanadi, ammo qaysidir millat tomonidan unga oddiy yegulik sifatida qaraladi. Yoki osh realiyasi. Bu so‘z o‘zbek xalqining ongida alohida milliylikni aks ettiradi. Ya’ni, bu taom xalqimizning

mehmondo‘stligini ifoda etadi, bizning shoh taomimiz sifatida alohida e’tibor bilan tayyorlanadi.

Endi rostini aytaversak, dunyoning oltidan bir quruqligining poytaxti bo‘lgan shahardan... piyoz topilmadi. Osh qilish xavfostida qolayotgani; mehmondo‘st va qo‘li ochiq xalqimizning bu tabarruk rusumini bajarishga qurbi yetmayotgan Adabiyot instituti talabalari bo‘lmish do‘stlarimiz sha’niga qora dog‘ tushishini hammamiz qorin hovuchlab (ochmiz!) anglab turibmiz. [6, 60].

O‘zbek xonadoniga mehmon kelsa, uni biron issiq ovqatsiz, ayniqsa, oshsiz kuzatib yubormaydilar. Bu hol kutilgan yoki kutilmagan mehmon kelganda, “do‘ppidek” bo‘lsa ham osh tortilganda namoyon bo‘ladi:

Imtihon topshirish tashvishlarini bir chetga yig‘ishtirib qo‘yib, ijaraxonaga borganimizdanoq qo‘lyozmani o‘qishga tutinamiz. “Begona” deb nomlangan bu qissa bizga yoqadi. Dadaxon akaga ertasi qo‘ng‘iroq qilamiz. U kishi bizni uyiga taklif qiladi.

Dadaxon aka maqtovlarni eshita-eshita osh damlaydi. Osh yeyilib, ketishga ruxsat so‘rash payti yetganda, to‘satdan savol berib qoladilar... [6, 42].

Mehmon Abdulla Qahhor bilan “sen-sen”lashib gaplashadi. Uning bu tarzdagi muomalasi menga g‘alati tuyuladi. Nazarimda, bu odam Abdulla Qahhorning soyasiga ham salom berishi kerakday edi.

Osh keladi. Domla oldiga esa alohida taom qo‘yiladi — tarelkada ikki sosiska, yonida yashil no‘xat.

— *Oshdan olinglar, — deydi domla.*

Osh realiyasi o‘zining milliy semasini maqollarda ham aks ettirgan:

*Mehmonga osh qo‘y,
Illi qo‘lin bo‘sh qo‘y.
Osh mehmon bilan aziz.
Osh egasi bilan shirin.
Rizqli mehmon osh ustidan chiqar.
O‘zbekka osh yaxshi,
Qozoqqa – go‘sht.*

O‘zbek tilida osh ko‘p ma’noli so‘z bo‘lib, izohli lug‘atda shunday izohlanadi: osh-fors. 1. Yovg‘on sho‘rva, xo‘rda. 2. Umuman, har qanday ovqat taom. 3. Palov. 4. Ba’zi munosabatlar bilan o‘tkaziladigan ziyofatlar nomining tarkibiy qismi, masalan, qiz oshi, arvoh oshi. Osh realiyasi bilan sinonim sifatida palov so‘zi ishlataladi. O‘zbek palovi – bu sharqona taomlarni xush ko‘rvuchilar va shirin ovqatlarni qadrlovchilar taomidir. Dunyoda 100 dan ortiq palov tayyorlash retsepti mavjud bo‘lsa-da, O‘zbekistonda palov tayyorlash o‘zgachadir. O‘zbekistonning har bir mintaqasi o‘zining yagona palov tayyorlash retseptiga egadir. Mazkur taom boshqa xalqlardan mavjud bo‘lsa-da, milliy semalari bilan o‘zbek palovidan farq qiladi.

Do ‘stlar, — deydi Murod jo ‘shib, — juda ajoyib o‘tiribmiz-e! Oshimiz ham zo ‘r bo ‘ladi! Kamina bugun konyakli palov tayyorlayman!

Aralash-quralashday tuyulgan davra birdan tartibga kiradi. U hayron, chunki o‘zbek o‘zbek bo ‘lgandan buyon ne turfa palov tayyorlamagan deysiz. [6, 62].

Realiyaning xususiyati u ifoda etadigan ma’no orqali oydinlashadi. Muayyan xalqning turli davrlardagi yashash tarzi, odatlari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uning ma’nosiga ta’sir etadi. Shu sababli realiya haqida gapirilganda, unda aks etuvchi milliy semani chetda qoldirib bo‘lmaydi. Yana bir realiyalardan biri bu – chopon realiyasi.

Dars tugaydi. Men kitob-daftaramni choponimning tagidan yelkamga qo ‘yaman-da, ostidan belbog ‘ni mahkam bog ‘layman. [6. 6]

Yuqorida keltirilgan parchadagi chopon so‘zi, kiyim ustidan kiyiladigan, ichiga paxta solib qavilgan uzun milliy ust-bosh, to‘nni bildiradi. O‘zbek choponlari rangi, uzunligi, kengligi va kiyinish uslubiga qarab har xil hududlarda farqlangan. Masalan, Buxoroda, Qashqadaryo, Surxondaryo va Zarafshon vodiylarida uzun va keng, uzun yengli, paxta yoki yarim ipak rangli matodan tikilgan chopon, Farg‘ona va Toshkentda yashil yoki ko‘k-yashil chopon kiyish odat bo‘lган. Asrimiz boshlaridan qora satindan tikilgan chopon keng tarqalgan. Ushbu realiya milliy kiyim bo‘lishi bilan birga xalqimizga xos turli jihatlarni ko‘rsatib beradi. Qadimda bu kiyim yoshiga, ijtimoiy holatiga, kundalik hayotiga qarab turlicha kiyilgan. Yoshlar orasida bayram libosi sifatida ochiq rangli katta yo‘l-yo‘l beqasam to‘n kiyish urf hisoblangan. Qishloq

joylarda bunday chopon kuyov sarposiga kirgan. Uning holatiga qarab davrni, insonning turmush tarzini anglab olish mumkin bo‘lgan. U.Azim bu realiyani turmush sharoiti og‘ir, qiynalgan xalq qiyofasinini tasvirlashda mohirona keltiradi:

Urush fojealari tobora olislab ketayotgan bo‘lsa ham, hayotning hozir ham oyog‘i yalang, choponi ming yamoq edi. Bu nochorlik hatto orzulanishga ham xalaqit berardi. [6,34]

Chopon va to‘n so‘zlari bir ma’noda ishlataladi. Izohli lug‘atda ham shu tarzda keltirilgan. Xalqimizda yaxshi kunlarda, to‘y va tomoshalarda, katta yubileyarda tantananing sababchisiga zarbof chopon kiygizish odati mavjud. Barchaning ko‘z oldida yelkaga to‘n yopish urf bo‘lgan. Yoki quda-andalar ham bir biriga, qolaversa, kelin tomon kuyovga maxsus to‘n yuborishi bizning hududimizga oid urf-odatlardan biri. Ayniqsa, bu holat hozirgi kunda yana avj olgan. Ba’zi joylarda esa uyiga kelgan mehmonning izzati sifatida unga chopon hadya qilinadi.

Mehmondorchilik Maxsum buvaning tabarruk qo‘llari bilan necha xush taomlar tortilgan quyuq mehmondorchilik nihoyasiga yetadi. Mezbondan ruxsat so‘raymiz. U kishi dasturxonga duo o‘qiydilar.

— Endi, shoshmanglar, hozir...

U kishining imosi bilan tashqaridan chophonlar olib kirishadi.

Biz hayrat ichra xijolat tortamiz. [6, 463]

Maxsum buva bizni sidqidildan “chopon muborak” etadi va tashqariga yana imo qiladilar. [6, 464]

O‘zbek xalqida ushbu milliy kiyim turi motam libosi sifatida ham kiyiladi. Dafn marosimida vafot etgan kishining yaqinlari to‘n kiyib, beliga belbog‘ bog‘lab turadilar. Bu urf-odat vafot etgan insonga bo‘lgan hurmatni ham ifoda etadi:

Abdulla Qahhor vafot etganda, yosh adiblar “tepaga” noroziliklarini bildirganlar: O‘lmas Umarbekov boshchiligida ustozlarining tobuti yonida chophon kiyib, bel bog‘lab turganlar. [6, 304]

O‘lmas Umarbekov Qahhorning qadri uchun chophon kiyib, belini bog‘lashga o‘zida jur’at topdi. [6, 305]

Demak, chopon o‘zining qulayligi, sovuq kunlarda tanani issiq saqlash xususiyati bilan bir qatorda, milliy koloritni o‘zida mujassam etgan realiyalardan biri ekan. Bundan kelib chiqadiki, realiyalarni moddiy madaniyat belgilari sifatida aks ettirish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, realiyalarni muayyan xalqning milliy, madaniy, ijtimoiy hayatini, turmush tarzini, boy urf-odat va an'analarini o‘zida yorqin aks ettiruvchi va shu xususiyatlari bilan boshqa xalqlar milliy madaniyatida takrorlanmaydigan, o‘ziga xos birliklar deya ta’rif beramiz. Realiya sifatida tan olingan so‘zlar o‘sha madaniyat doirasida ma’lum ma’no anglatadi. Demak, realiya xalq tomonidan berilgan alohida ma’noga oidligi, milliy va tarixiy bo‘yoqqa ega bo‘lishi, ko‘p holatlarda moddiy narsa va buyumlarni ifoda etishi, boshqa madaniyatlarda uchramasligi kabi xususiyatlarni jamlaydi. Ularning tadqiqida esa semantik taraqqiyotni tadqiq etish ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...// O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2012. – B.12
 2. Вайсбурд М. Л. Реалии как элемент страноведения // Русский язык за рубежом. 1972. №3. С. 98–100.
 3. Фёдоров А.В. Основы общей теории перевода. М.: Высш. шк., 1983
 4. Швейцер А.Д. Теория перевода, статус, проблемы, аспекты. М.: Наука, 1988.
- 1973.
5. Худойберганова Д. Лингвокултурология терминларининг қисқача лугати. – Тошкент. Turon zamin ziyo. 2015. 32-б
 6. Азим У. Сўнгўзлар. – Тошкент: Илм-зиё-заковат, 2020. -512 б.
 7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent. 2008. 5-jild.
 8. O‘zbek xalq maqollari. -Toshkent. Adabiyot uchqunlari. 2014. -152 b

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13924064>

THE ROLE OF UNIVERSITIES IN THE NATIONAL PROJECT “GREEN SPACES” AND “GREEN ENERGY”

J.Ergashov

HEAD OF THE INTERNATIONAL
RELATIONS DEPARTMENT, DIEP

Abstract: The paper analyses the current situation with planting trees and reforestation goals achieved globally as well as studies held in this matter in different countries. Further, national project “Yashil makon” (Green space) of Uzbekistan is discussed from this perspective in the example of Denau institute entrepreneurship and pedagogy.

Key words: seedling production, reforestation, green spaces, carbon dioxide, national project “Yashil makon” (Green space).

Planting trees has quickly emerged as a seemingly simple way to soak up carbon emissions. Everybody likes it: Environmentalists, politicians, and corporations alike are pushing for a rapid expansion of reforestation efforts to help meet climate goals. This means growing trees—and lots of them—with the expectation that they’ll capture and store carbon dioxide and help prevent it from warming the world beyond the Paris Agreement target of 3.6 degrees Fahrenheit (2 degrees Celsius) above pre-industrial temperatures.

But according to a new study in the journal *Frontiers in Forests and Global Change*, there aren’t enough tree seedlings currently being grown, and if reforestation efforts are to help tackle climate change, the study finds, tree nurseries should increase their production to more than double current levels. This needs to happen “sooner than later,” said the study’s lead author, Joe Fargione, science director for The Nature Conservancy’s North America Region. “You can’t plant a tree until you grow it. And you can’t grow it in the nursery until you have the seed.”

Ramping up seedling production that much, and making sure they live long enough to trap enough carbon emissions, will cost tens of billions of dollars, according to the study. It will require training specialized seed collectors and investing in new infrastructure, as well as bolstering long-term monitoring to ensure forests survive in the face of pests, disease, drought, and wildfires—threats that are all on the rise because of climate change.

Beyond individual corporate or local goals, growing trees can contribute something to national climate targets. The land sector—which includes everything from tree planting and avoiding deforestation to increasing the amount of carbon stored in soils—accounted for a small portion of the national governmental commitment. The current rate of reforestation, however, can't even keep up with the amount of land that has been burned by devastating wildfires in recent years. Climate change is only expected to make wildfires more intense, which will increase that backlog. “We’re just now recognizing the increasing backlog of areas that need to be planted that aren’t being met yet,” said seed ecologist and study co-author Olga Kildisheva, a project manager at The Nature Conservancy.

Planting more trees to offset carbon emissions will further increase demand for seedlings. The good news, said Fargione, is that only a third of public and private nurseries surveyed are currently operating at full capacity. That means there’s a big opportunity to expand.

Boosting seedling production and planting them means increasing support and investment across the entire process. As the study found, there has been “chronic under-investment” in specialized labor, infrastructure, and training. “Workforce challenges,” said Sprague, “are the number one barrier to scaling up.”

Seed collectors need to understand everything from predicting when certain species will release their seeds—making them available to gather—to how to safely clean seeds. Staff then need to be trained on how to test the seeds’ quality and store them so they stay viable over the years. “It’s a perishable product; it needs to be treated carefully,” said study co-author Greg Edge, a forest ecologist with the Wisconsin

Department of Natural Resources' Forestry Division. Yet the number of people specializing in this work continues to dwindle.

Nurseries, meanwhile, rely only on a handful of year-round staff; the rest are seasonal workers who help with sowing, harvesting, sorting, and packing. It can be difficult to attract these workers, though, due to the remote locations of many nurseries, as well as competition from other agriculture jobs. Immigration policies can also affect the number of available workers, the study noted.

A tree-planting campaign with stable, long-term funding—whether national or private—could provide nurseries the certainty they need to ramp up production, experts agreed. And even a tree-planting campaign can be doomed by a “misplaced emphasis on how many trees are planted rather than how many survive,” the study warned. It calls for developing guidelines on what seeds will thrive in different environments, especially as climate change shifts plant species to new regions.

The nationwide project "Yashil makon" (Green space) initiated by the President of Uzbekistan in November 2021 envisages planting 1 billion seedlings of trees and shrubs throughout the country over the next five years, as well as increasing the area of green areas and parks from 8 % to 30% by 2026.

The nationwide program "Yashil makon" is published on the UN electronic platform as an exemplary project for achieving the Sustainable Development Goals. Detailed information about the Yashil Makon program has been posted on the SDG Acceleration Actions platform of the UN Department of Economic and Social Affairs.

The concrete results of the project implementation for one year are given - the creation of 535 hectares of forest plantations and 638 hectares of public parks.

It describes in detail the ongoing purposeful work to: improve the management system in the field of planting and caring for trees; conducting research to determine the soil and climatic conditions of the regions; increase in the number of nurseries; strengthening responsibility for damage and destruction of trees, further increasing public control.

The expected contribution of the project to the implementation of the Sustainable Development Goals is highlighted separately. “This ambitious and far-reaching program is helping to accelerate the achievement of various SDG targets at the local, national and regional levels,” the publication says. As noted, the section on the Yashil Makon project will be regularly updated as the goals and milestones are achieved.

The UN Platform for Action to Accelerate the SDGs is a database of innovative and pioneering projects aimed at accelerating the implementation of the Sustainable Development Goals. It is designed to inspire and mobilize practical action by the global community to advance the SDGs, ensure a sustainable and inclusive recovery from the COVID-19 pandemic.

It should be noted that the projects registered in the register of this platform will be demonstrated at key international events, including the annual High-Level Political Forum on Sustainable Development, the ECOSOC Partnership Forum, and will also be actively promoted in social networks.

Our educational institutions encouraging and supporting the education and training sector to take action for a greener, more sustainable future and to build the sustainability competences of learners. Support for the green and digital transitions is a priority area for DIEP in education.

The move to a climate-neutral earth will have significant social, economic and employment impacts. A socially just transformation needs people to have the knowledge, skills and attitudes to shape and cope with profound change. Education and training systems and institutions can act as catalysts and support a shift to a more sustainable society.

A wide range of initiatives and actions on the environment and sustainability are taking place in education and training across Uzbekistan. They reflect progress and growing public interest, but more needs to be done so that learning for sustainability becomes a systemic feature of education policy and practice in the Uzbek educational sphere.

Higher education institutions all around the world play an important role in the national project "green space and green energy." The national project is designed to improve the environment and reduce energy consumption. Higher education institutions are responsible for developing and implementing new technologies to improve energy efficiency and sustainability. They also play a role in outreach and education, raising awareness of the importance of green space and green energy. So, on the initiative - the "Green Space" project is being implemented in our country from March 1, 2022. At the level of the newly opened institute in Denau District, the "Green Space" project was actively participated in by the residents of the district, the management staff, teachers and students of the Denau institute of Entrepreneurship and Pedagogy and contributed to this good project. The project was planned to two seasons (autumn, spring). On the first season, about 6000 trees were planted with ornamental trees and shrubs in 2022. It is planned to plant 10,000 thousand saplings in the spring season of 2023, and according to March 9, 2023 report, a total of 7,335 fruit and ornamental seedlings and 1,500 poplar and rose cuttings were planted. A modern eco-garden will also be built at the institute. In addition, A 50kW solar panel was purchased and installed for use in the buildings of the institute. Installation of solar panels to education buildings (50 kW), the building of the Information Resource Center (35Kw), the building of Pedagogy Faculty (50kW) are planned for the 2nd quarter of 2023. In addition, the installation of 14 units of water heating stations with solar panels is planned for the 3rd and 4th quarters of 2023. The use of renewable energy will not only save limited energy resources, but also contribute to the stability of our economy. As well as, Increasing the supply of renewable energy would allow us to replace carbon-intensive energy sources and significantly reduce global warming emissions. Projects on the establishment of "green spaces" and "green energy" are being implemented in all universities in Uzbekistan and practical work on their implementation is underway.

Sustaining healthy and functioning green areas are natural assets or natural capital which are interconnected and provide services which are of significant value to sustaining local and global economies.

LITERATURE:

1. Joseph E Fargione, Thomas R Cooper, David J Flaspohler, Jason Hill, Clarence Lehman, David Tilman, Tim McCoy, Scott McLeod, Erik J Nelson, Karen S Oberhauser. Bioenergy and wildlife: threats and opportunities for grassland conservation. Bioscience 2009/10/1. American Institute of Biological Sciences
2. Greg Edge, Wisconsin Department of Natural Resources' Forestry Division
<https://www3.uwsp.edu/cnr-ap/WFC/Pages/Research-Development/SilviCast.aspx>
3. <https://www.frontiersin.org/journals/forests-and-global-change>
4. https://landing.restor.eco/?gclid=Cj0KCQjw0tKiBhC6ARIAsAAOXutmw2FMIPIV_UOWekPlN1a2fqW4CBYPDksSQIp2RohtT3WcWKrmH45kaAsWZEA_Lw_wcB
5. <https://royalsocietypublishing.org/journal/rstl>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13924073>

LOYIHA BOSHQARUVIDA PUL OQIMLARINI TAHLIL QIISHNING OBYEKТИV ZARURLIGI VA USLUBIY ASOSLARI

Xalilov Isomiddin Faxriddinovich

O‘zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi

“Loyiha boshqaruvi” yo‘nalishi tinglovechisi

e-mail: isomiddinxalilov84@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada loyiha boshqaruvida pul oqimlari tahlilining zarurligi, ilmiy asoslari, tahlil manbalari va ulardan foydalanishning uslubiy asoslari keltirilgan. Loyiha boshqaruvida pul oqimi kirimi va chiqimini hisob-kitobi, hamda ularning tarkibi, pul oqimi tahlilini uzlucksiz amalga oshirish haqidagi ilmiy fikr va mulohazalar bayon qilingan.

KALIT SO‘ZLAR: loyiha, boshqaruv, moliya, pul, oqim, mablag‘, ekvivalent, usul.

OBJECTIVE NEED AND METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF ANALYSIS OF CASH FLOWS IN PROJECT MANAGEMENT

Xalilov Isomiddin Faxriddinovich

Bank Finance of the Republic of Uzbekistan Student of the

Academy of Project Management

e-mail: isomiddinxalilov84@gmail.com

ABSTRACT

This article presents the need for cash flow analysis in project management, its scientific basis, sources of analysis, and the methodological basis for their use. In the project management, scientific opinions and considerations about the calculation of cash flow inflow and outflow, as well as their composition, continuous implementation of cash flow analysis are described.

KEY WORDS: project, management, finance, money, flow, funding, equivalent, method.

KIRISH. Har qanday loyiha boshqaruvining samarasi pul oqimini to‘g‘ri tashkil etislishini taqazo qiladi. Chunki, korxona va tashkilotlarning iqtisodiy taraqqiyoti, ishlab chiqarish quvvatlarining modernizatsiyasi aynan loyihalarga bog‘liq bo‘lib, loyihani muvffaqiyati esa, moliyaviy resurs va manbalarini, ya’ni pul oqimlarining samarali boshqaruviga bevosita bog‘liq hisoblanadi. Xususan, loyiha, bu belgilangan vaqt davomida smetalangan byudjet bilan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig‘indisi, yoxud loyihani amalga oshirish yo‘nalishlarini o‘zida mujassam etgan hujjatlar to‘plami sifatida qaraladi. Milliy iqtisodiyotimizda aynan investitsion loyihalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Xususan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor maqsadlar tarkibida “Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minalash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni - 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish” [1] vazifasining belgilanganligi investitsiya muhitini yanada yaxshilash, uning jozibadorligini oshirish, nafaqat mahalliy, balki, xorijiy investitsiyalar ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan samarali loyihalarni tayyorlash obyektiv zaruriyat hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatadiki, loyihani boshqarishning asosiy rivojlanish tendensiyalari amaliy biznes talablari bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, o‘z tarkibiga quyidagilarni oladi:

- uslubiyat va loyihalarni boshqarish vositalarining ixtisoslashganligi;
- biznesni boshqarish jarayonlarini umuman loyiha boshqaruviga yanada yaqinroq bog‘lashi.

Nazariy manbalar tahlilidan ko‘rinadiki, loyihani boshqarish uslubiyati va asbob- uskunalari sohasidagi ixtisoslashuvi sezilarli darajada rivojlanmoqda. Global loyiha boshqaruvi bo‘yicha mutaxassis Russell Archibald (Rassel Archibald), Lynn Krafford

(Lynne Crawford) va boshqalar loyihalarni boshqarishning yagona tasnifini va loyihalarni boshqarish yondashuvlarini asoslaydigan hujatlarni chop etdi [Crawford, 2014]. [2]

Amerika Qo'shma Shtatlardagi loyihani boshqarish instituti (PMI) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, davlat sektorida [PMBOK, 2015], qurilish, mudofaa va avtomobilsozlik sohasida loyihalarni boshqarish bo'yicha maxsus standartlar ishlab chiqildi va e'lon qilindi. Loyiha boshqaruvini biznes boshqaruv usullari va vositalarining yagona tizimiga integratsiyalashuvini ishlab chiqish dasturlari[2]ning yaratilishi, endilikda pul oqimlarini samarali tashkil etish bo'yicha uslubiy asoslarni ham takomillashtirishni dolzarb masalaga aylantirmoqda..

MUHOKAMA. Loyiha boshqaruvida pul oqimi, bu pul mabla'larining loyiha maqsadlarini ta'minlashga qaratilgan kirimi hamda chiqimi, ya'ni sarflanishi tushuniladi. Xususan, loyiha boshqaruvining joriy davrida pul mablag'lari kirimi loyiha egalari hamda tashabbuskorlarining ichki imkoniyatlari hisobiga jalg qilingan pul mablag'lari, bank kreditlari, byudjetdan olinadigan hamda xorijiy va mahalliy investorlar mablag'lari tashkil etsa, chiqimi loyihani amalga oshirishda zarur bo'lgan xom-ashyo materiallar, yarim tayyor fabrikalar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun, ishchi-xodimlarning mehnatiga haq to'lash uchun to'langan pul mablag'lari summasi, shuningdek, belgilangan soliqlar hamda majburiy yig'mlar uchun to'langan mablag'lar summalarini, byudjetga jismoniy shaxslar daromad solig'ini to'lash, kasaba uyushmasiga ajratmalar, loyihani amalga oshirish uchun zaruriy fondlarga, investorlarga qilingan to'lovlar, jalg qilingan bank kreditlarining jadvalga asoslangan asosiy va foiz to'lovlar uchun qilingan sarflar tashkil etadi.

Pul oqimining yuqoridagi keltirilgan tarkibiy tasnididan ko'rindan, ushbu jarayon nafaqat murakkabligi, balki, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun uzluksiz tahlil qilib borishni zaruratga aylantiradi.

NATIJA. Loyiha boshqaruvida pul oqimlarini tahlil qilishning to'g'ri va egri usullari mavjud. To'g'ri usul - loyiha boshqaruvida "pul mablag'lari harakatini ijobiy va salbiy farqlanishlarini aniqlashning kassa usulida hisob-kitob qilinishidir"[3].

Pul mablag‘larini to‘g‘ri usulda tahlil etishning metodologik asosi balans usuli hisoblanadi.Uning mazmunini quyidagilar tashkil etadi:

- pul qiymatliklarining davriy qiymatini hisobga olmaslik;
- pul mablag‘larini qoldiq qismini aniqlashda bog‘lanishlar quyidagi tenglikka teng:

$$\mathbf{PMdb + PMk - PMch = PMdo}$$

Bu yerda: PMdb, PMdo - pul mablag‘larining davr boshi va oxiriga qoldig‘i;

PMk-pul mablag‘lari kirimi;

PMch-pul mablag‘lari chiqimi.

To‘g‘ri usulda tahlil etishning o‘ziga xos qulaylik va imkoniyatlari mavjud bo‘lib, uning asosini buxgalteriya hisobi schetlaridagi ma’lumotlar asosida pul mablag‘larining kirimi va chiqimini hisoblashni nazarda tutadi. Ya’ni, joriy manbasi buxgalteriya hisobining schetlar rejasidagi axborotlar hisoblanadi. Pul mablag‘lari schetidagi debit va kredit aylanmalari hajmi tahlilning zaruriy manbasi hisoblanadi. Barcha schetlar bo‘yicha debet va kredit aylanmalari hajmi faoliyat turlari bo‘yicha qayta tarkiblanadi.

To‘g‘ri usulda pul mablag‘larini tahlil etish quyidagi savollarga aniq javob topish imkonini beradi [4]:

- joriy faoliyatdan keladigan pul mablag‘larini faoliyat uzlusizligini va rejalashtirilgan investitsion faoliyatni taminlashga yetarlimi yoki yetishmasligini baholash;
- moliyaviy faoliyatdan keladigan pul mablag‘larining balanslangan sifatiga erishish uchun qancha mablag‘ kerakligini hisoblash;
- asosiy, investitsion va moliyaviy faoliyatdan xarajatlar va ularning kelish manbalarini korxona bo‘yicha jamlangan holda baholash;
- pul mablag‘lari kirmi va chiqimining ularning davr oxiriga qoldiq summalariga qay darajada ta’sir etishini baholash;
- faolit turlari bo‘yicha pul mablag‘lari tarkibiga, har bitta faoliyat turi bo‘yicha so‘f pul mablag‘lari so‘f kirimi (chiqimi)ni baholashga imkon beradi.

Loyiha boshqaruvida joriy faoliyatdan sof pul mablag‘lari kirimi (chiqimi)ning ijobi va salbiy holatlari kuzatiladi.

3. Mukhametov, A. M. (2023). ENVIRONMENTAL THROUGH SPORTS TOURISM EVENTS IN STUDENTS PEDAGOGICAL CONDITIONS OF CULTURE DEVELOPMENT. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(4 Part 2), 51-55.
4. Мухамметов, А.М. (2022). Научно-методические основы нормирования нагрузок в физкультурно-спортивном здравоохранении. *Евразийский научный вестник* , 8 , 194-197.
5. Мухаметов, А. М. (2022). СПЕЦИАЛЬНЫЕ ЗНАНИЯ ПЕДАГОГА И ИХ МЕСТО В ФИЗИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(5), 1-4.
6. Ahmad, M. (2022). Health Orientation as An Important Principle of the System of Physical Education. *Eurasian Scientific Herald*, 6, 84-87.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13924093>

O'QUVCHILAR IJTIMOIYLASHUVINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Pardayev Bekmurat

Nizomiy nomidagi TDPU,

Boshlang'ich ta'lilda ona tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещается проблема социализации личности, обсуждается роль социализации в развитии личности, факторы и этапы социализации. Также в статье описаны агенты социализации, их функции и роль в развитии личности, государства и общества.

Ключевые слова: социализация, факторы социализации, агент, этапы социализации, социальная среда, критерии социализации, первичные и вторичные агенты.

ANNOTATION

This article covers the problem of personality socialization, discusses the role of socialization in personality development, factors and stages of socialization. The article also describes the agents of socialization, their functions and role in the development of personality, state and society.

Keywords: socialization, factors of socialization, agent, stages of socialization, social environment, criteria of socialization, primary and secondary agents.

Jahonda bola huquqlarini himoya qilish, ularning har tomonlama uyg'un rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, pedagog va ota-onalarning farzand ta'lim-tarbiyasidagi majburiyatlarini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda shaxs ijtimoiylashuviga ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Bu xususida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qandayinson bo‘lib kamolga etishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz—yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”, -deb ta’kidlaydi [1;2].

Ajdodlarimiz o‘tmishda shaxs ijtimoiylashuvining pedagogik-psixologik qonuniyatlarini alohida fan sifatida o‘rganmagan bo‘lishsada, ularning asarlarida mazkur holatlarning yoritilishi va tahlili kuzatiladi. Buyuk mutafakkir Forobiyinsonning shaxs yakka holda hech qachon asl ma’noda baxtli bo‘lolmasligi, uning ijtimoiytabiati xususida shunday yozadi: «Har bir inson o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi; uning bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga krita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoji tug‘iladi»[2;159].

Hozirgi zamon fanida ijtimoiylashuv atamasi shaxsga nisbatan ilk bor amerika sotsiologi F.G.Giddingsning 1887-yilda nashr qilingan «Ijtimoiylashuv nazariyasi» asarida qo‘llanilgan. Ijtimoiylashuv Giddings nuqtai nazaricha, “inson materialini jamyat hayotiga tayyorlashda individ xarakteri yoki ijtimoiy tabiatini rivojlantirishni anglatadi.

Ijtimoiylashuv bevosita joylardagi ijtimoiylashtirish agentlarining intellektual darajasi bilan belgilanadi, jarayonning ilmiy asosda tashkil qilinishi, avvalambor, shaxsning o‘zi, qolaversa, butun jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi. Ma’lum bo‘ladiki, shaxs shakllanishi, rivojlanishida ijtimoiylashuv agentlarining muhim o‘rnı mavjud.

Ijtimoiylashuv agentlari—bu o‘quvchini ijtimoiyrollarga o‘rgatishga mas’ul bo‘lgan insonlar toifasi. Ijtimoiylashuv agentlari o‘quvchining ijtimoiylashuvi vazifalarini anglab etishiga yordam beradi. Odatda ular birlamchi va ikkilamchi agentlar sifatida ikki toifaga ajratiladi. Birinchisi—bu o‘quvchining yaqinlari. Birlamchi agentlar muloqot uslubi va psixologik ta’sir doirasiga ko‘ra yaqin bo‘lib, ular o‘quvchida o‘z harakteri hamda individual turmush tarzini shakllantirishga bevosita yordam beradi. Ular ota-onalar, qaerda istiqomat qilishidan qatiy nazar qarindoshlari,

o‘zi va ota-onalarining tanishlari, qo‘snilari, sinfdosh-tengdoshlari, o‘qituvchi-tarbiyachi, murabbiylari, shifokorlar va boshqalar. Har bir agent uning oldiga qo‘yilgan o‘ziga xos muayyan ijtimoiyrol yoki vazifani bajaradi. Masalan, ota bolaning yaxshi, qulayyashashi uchun zarur bo‘lgan vositalarni ishlab topsa, ona oilaning psixologik qulayligini ta’minlaydi, do‘sti ko‘makdosh, maslahatchi, himoyachi, o‘qituvchi bilimi, darslariga mas’ul, shifokor salomatligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

V.P.Efroimson ota-onalarni asosiy ijtimoiylashtirish agentlari sifatida ko‘radi. Uningcha, asosiy agentlar ijodkor shaxslar bo‘lsa, bolalar ko‘proq mustaqillik, ikkilanish va tavakalchilikka moyil bo‘lishi, shuningdek asosiy agentlar intellektual kasb egalari bo‘lishsa, bu kabi oila farzandlarining aksariyati umume’tirof etiladigan axloqiy standartlarga amal qiladigan shaxslar bo‘lib etishadi(7;169).

Ikkilamchi ijtimoiylashuv agentlari boshlang‘ich sinf o‘quvchisi bilan bevosita muloqot va psixologik ta’sirda vaqt va masofa nuqtai nazaridan imkoniyatlari nisbatan chegaralangan bo‘ladi. Ikkilamchi agentlar boshlang‘ich sinf o‘quvchisi bilan o‘zaro muloqotda rasmiy munosabatga asoslanadi. Ba’zan ikkilamchi agentlar boshqa birlamchi ijtimoiylashuv agentlariga nisbatan boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun yaqin va aziz insonga aylanishi mumkin. Ular o‘rtasida uzoq yillik samimiyva o‘zaro hurmaga asoslangan do‘stona munosabatlar shakllanishi tajrida kuzatiladi. Ikkilamchi agentlar o‘ziga xos ta’sir kuchiga ega:

-maktab o‘qitish asosida o‘quvchilarga kelajakda tanlaydigan kasblari uchun zarur bo‘lgan bilimni egallashga xizmat qiladi;

- mahalla, machit diniy va dunyoviy ijtimoiy qadriyatlarga amal qilishni o‘rgatadi;
- mehnat jamoalari insonni kun tartibiga amal qilish, o‘z mehnatidan rohatlanish hissini tarbiyalaydi;

-huquq-tartibot xodimlari shaxsning qonunlarni hurmat qilishini ta’minlaydi;
- OAV o‘quvchilarni dunyodan xabardor qiladi;
- davlat o‘quvchilarning hayotlarini qonunga mos tarzda tashkil qiladi.

Ijtimoiylashuvning birlamchi va ikkilamchi agentlari bo‘lgani kabi ixtimoiyashuv jarayoning ham birlamchi va ikkilamchi shakllari ajratiladi. Birlamchi ijtimoiylashuv

– shaxslararo munosabatlardan iborat bo‘lsa, ikkilamchisi esa ijtimoiy munosabatlar sohasini qamrab oladi. Shaxsnng o‘zi esa ham birlamchi, ham ikkilamchi ijtimoiylashuv agenti bo‘lishi mumkin. Birlamchi ijtimoiylashuv bola tug‘ilgan paytidan uning voyaga etgunga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ikkilamchi ijtimoiylashuv o‘quvchining asosiya’limdan keyingi butun umri mobaynida davom etadi va oldin o‘zlashtirgan me’yor va qadriyatlarning buzilishi yoki o‘zgarishi bilan harakterlanadi. Ijtimoiylashuv bosqichlari to‘g‘risidagi mushohadalar mamlakatimiz pedagogikasi va psixologiyasiga doir manbalarda ham o‘z ifodasini topgan.

Ikkilamchi agentlardan farqli o‘laroq birlamchi agentlar o‘zaro vazifalarni almashtirish yoki to‘ldirishi mumkin. Birlamchi agentlar universal, ikkilamchi agentlar esa ixtisoslashgan bo‘ladi. Masalan, ota-onalar va tengdoshlar ko‘pincha biri boshqasining vazifalari bajaradilar. Ba’zan hayotda qarindosh-urug‘lar ota-onalarning ijtimoiyvazifalarini o‘z zimmalariga olishlari ham kuzatiladi. Ammo ikkilamchi agentlar xususida bunday deb bo‘lmaydi, chunki ular tor doirada ixtisoslashgan: shifokor yoki o‘qituvchi bo‘lolmaydi. Birlamchi ijtimoiylashuv agentlari esa universaldir. Bu ijtimoiylashuv agentlari o‘rtasidagi yana bir farq shundaki, ikkilamchi ijtimoiylashuv agentlari o‘z rolini bajarish uchun haq oladilar, lekin birlamchi ijtimoiylashuv agentlari vazifalari uchun mablag‘ talab qilmaydi.

B.Pardayevning e’tiroficha, shaxsnning rivojlanishida ijtimoiylashuv agentlarining roliga past nazar bilan qarash mumkin emas. Shu bois ota-onalar, o‘qituvchilar va ularning o‘rnini bosuvchi birlamchi agentlar o‘quvchining ijtimoiylashuvi masalasiga jiddiyqarashlari, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashlari kerak bo‘ladi[9;54]..

Jamiyat murakkab organizmga o‘xshaydi, organizmda o‘z hayotini o‘tab bo‘lgan hujayralar o‘rniga yangilari kelgani kabi jamiyatda ota-onalari va boshqa katta yoshdagilar o‘rnini yangi avlod vakillari egallaydi. Yoshlar ijtimoiymuhitning to‘laqonli mustaqil va faol a’zolariga aylanishlari uchun muayyan ijtimoiylashuv bosqichlarini bosib o‘tishi talab qilinadi. Jaloliddin Rumiy shaxs samarali ijtimoiylashuvida bolaning homilalik davri, oiladagi ijobiy muhit, ta’lim maskani hamda iqtidorli ustozning roli singari muhim to‘rt bosqichni ajratib ko‘rsatadi. Alloma

sanab o‘tilgan omillarni o‘zaro mushtaraklikda amalga oshirish zarurligini, ulardan birortasining nomukammalligi shaxs ijtimoiy kamolotiga putur etkazishini ta’kidlaydi.

Ijtimoiylashuv jarayonining har bir bosqichi muayyan ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish, yangi maqomga ega bo‘lish bilan harakterlanadi. Birlamchi ijtimoiylashuvda axborotlarni egallah imkoniyatlari o‘quvchining biologik intellektual parametrlari, reaksiya vaqtisi, diqqati, xotirasiga bog‘liq bo‘ladi. Biroq ulg‘aygani sari biologik instinklarining roli kamayib, ijtimoiyomillarning o‘rni va roli shunchalik ortib boradi, Jumladan, kichik maktab yoshi bilan bog‘liq bosqichda bolaning oila doirasidagi rivojlanish imkoniyatlari yakuniga etadi, endi maktab uni bo‘lg‘usi faoliyatiga oid bilimlar, ko‘nikmalar, madaniyqadriyatlar bilan qurollantiradi. Bu bosqich–shaxs ijtimoiylashuvining asosiy davri sanalib, unda o‘quvchi shaxsiga xos sifatlarning 70%ini o‘zlashtiradi. Aynan shu davrda o‘quvchida o‘z Meni shakllanadi, bu bosqichdagi ijtimoiylashuv jarayoniga e’tiborsizlik tuzatib bo‘lmash oqibatlarga olib kelishi mumkin.

R.A. Mavlonova ijtimoiylashuv bosqichlarini dastlabki ikki yil, maktabga borish, o‘smirlik yoshi, yoshlik kabi davrlarga ajratadi [3;152]. A.V.Mudrik, I.S.Kon, N.M.Egamberdiyeva va boshqalar esa o‘smirlik va o‘spirinlik davrini alohida ajratib ko‘rsatishadi. Ba’zi olimlar birlamchi ijtimoiylashuv-bolalik davri va ikkilamchi ijtimoiylashuv-yetuklik va o‘rta yoshni ajratib ko‘rsatishadi. Biz A.V. Mudrikning ijtimoiylashuv jarayonlari bosqichlariga nisbatan ifodalagan fikrlariga qo‘shilgan holda, quyidagi ijtimoiylashuv jarayoni yosh bosqichlarini ajratib ko‘rsatamiz: go‘daklik, kichik bog‘cha yoshi, maktabgacha, kichik maktab yoshi, o‘smirlik, ilk yoshlik, bolalik, co‘ngra yoshlik, etuklik, keksalik, qarilik yoshi, shuningdek uzoq umr ko‘rvuchilar.

Bundan tashqari, A.V.Mudrik o‘z ilmiy izlanishlarida shaxs ijtimoiylashuvini mehnat munosabatlari nuqtai nazaridan mehnatga qadar; bolalik, o‘smirlik, mehnat davri; etuklik hamda mehnatdan keyingi keksalik ijtimoiylashuv davrlarini o‘zaro ajratishni taklif qiladi [4;74]. Ijtimoiylashuv bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tgani sari subyekt o‘zi bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar kengayishining shohidi

bo‘ladi. Shaxsning individuallashuv davrida boshlang‘ich sinf o‘quvchisi sifatida o‘z etakchi faoliyat turi, kommunikativ va kognitiv ijtimoiyme’yorlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda o‘z shaxsini namoyon etish me’yorlarni ishlab chiqish, individualligi bilan boshqalardan ajralib turish ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi.

Turli xalqlarning tarixiy sharoiti, ijtimoiyfaoliyat amaliyotida mavjud tafovutlarga qaramasdan, deyarli ularning barchasi uchun xos bo‘lgan ikki bosqichli tipik jihat mavjud. Birinchisi—bu iqtisodiymustaqil agent rolini o‘zlashtirishni anglatса, ikkinchisi shaxsning o‘z oilasini qurishini naxarda tutadi. Bu jamiyat bardavomligini ta’minlashga qaratilgan insonning an’anaviybiologik turni davom ettirish jarayonidagi ishtirokini anglatadi. Olimlar insonlarning turmush darjasи ularning ijtimoiylashuviga ketadigan vaqt davomiyligi hamda sifatiga bevosita ta’sirini ta’kidlashadi. Shu sabab, aksariyat tadqiqotchilar asosiydiqqatlarini bolalik; xususan bog‘cha va kichik maktab yoshi davri bilan bilan bog‘lashadi.

Maqolada shaxs ijtimoiylashuviga ta’sir qiluvchi omillar xususida ham to‘xtaldik. O‘zbek tilining izohli lug‘atida omil so‘zi [arabcha-sabab, ta’sirchan kuch] "ish-harakat, voqeа-hodisa, shu kabining yuzaga chiqishi, sodir bo‘lishi uchun sabab bo‘lgan narsa, sabab" sifatida talqin qilinadi [8;332]. Ijtimoiylashuv jarayonida o‘quvchi jamoa bilan turli shakllardagi hamkorligi natijasida muayyan ta’sirga uchraydi. Ana shu ta’sirlar jamlanmasiga ijtimoiylashuv omillari deb yuritiladi. Manbalarda o‘quvchi ijtimoiylashuvining irsiy-biologik hamda ijtimoiyomillari o‘zaro farqlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ijtimoiylashuvining muhim omili sifatida biologik omillar e’tirof etiladi. Ijtimoiylashuvda o‘quvchining biologik mavjudot, tirik organizm ekanligi, uning rivojlanishi biologik va fiziologik qonuniyatlargа bo‘ysunishini inobatga olmaslik mumkin emas. Ya’ni o‘quvchi tabiatan irsiy meros qilib olgan ma’lum bir tug‘ma sifat, xususiyatlarga ega bo‘ladi. Mana shu meros qilib olingan biologik va fiziologik sifatlar o‘quvchining ijtimoiylashuvi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiyrollarni o‘zlashtirish darajasini belgilab beradi. Shu bois, biologik omillarning shaxs ijtimoiylashuviga bo‘lgan ta’sirini ikkinchi darajali omillar sifatida e’tirof etish mumkin emas.

Shuningdek, A.V.Mudrik o‘quvchi shaxsi ijtimoiylashuviga makon va zamon nuqtai nazaridan o‘z ta’sirini ko‘rsatadigan omillarni quyidagi to‘rt guruhga ajratadi: megaomillar-koinot, sayyora, olam, Internet; makroomillar–mamlakat, elat, jamiyat, davlat; mezoomillar–katta guruhdagi odamlarning yashash hududi, o‘rni va turmush tarzi bilan bog‘liq holdagi ijtimoiylashuvi shart-sharoitlari, u yoki bu ijtimoiy-madaniyadoqadorligiga ko‘ra; mikroomillar–oila, mahalla, tengdoshlari, tarbiyachilar va boshqa mikro ijtimoiymuhit subektlari [5;48].

Hozirgi sharoitda sanab o‘tilgan omillar o‘z o‘rinlarini ta’sir doirasi tobora oshib borayotgan OAV hamda Internet tarmog‘i kabi ijtimoiylashtirish agentlariga bo‘shatib bermoqda. Internet orqali o‘quvchi-yoshlar tushib qolayotgan virtual olam oilada, o‘qishda, sinfdoshlari davrasida real hayotda duch keladigan ichki va tashqi ziddiyatlarni engib o‘tishi, kayfiyati, qarashlari, hayotiypozitsiyalari, hissiyot va emotsiyalarini ifodalashiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, unda internet-qaramlik holatini keltirib chiqaradi. Internetdagi pornografiya, zo‘rovonlik, reaksiyon oqimlarning targ‘iboti o‘quvchi ijtimoiylashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ular ta’sirida o‘quvchi-yoshlar milliyva umumbashariy qadriyatlarga yot bo‘lgan noaxloqiyva noinsoniy ishlarga qo‘l urishgacha borib etishiga olib keladi. Aynan shuning uchun sog‘lom ijtimoiylashuv masalsiga ijtimoiylashtirish agentlarining, ayniqsa jamoat tashkilotlari, ota-onha hamda o‘qituvchilarning e’tiborlarini oshirishni zamon taqozo etmoqda..

E’tirof etilayotgan fikrlar nazariy va amaliy jihatdan katta qiziqish va ahamiyatga ega. Ko‘rinib turibdiki, ijtimoiylashuv muhim pedagogik kategoriya sifatida shaxs, oila, millat, davlat va jamiyat tarqqiyotini belgilovchi muhim ijtimoiy hodisa. Unda shaxs rivojlanishiga o‘zining ijobiy yoki salbiy ta’sirini ko‘rsatuvchi agent, bosqich va omillariga nafaqat o‘qituvchilar hamda ota-onalarning alohida e’tibor qaratishi, balki davlat va nodavlat tashkilotlarining ijobiy munosabatlarini shakllantirish o‘quvchilar muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta’minlashning garovi hisoblanadi. Demak, o‘quvchi ijtimoiylashuviga bo‘lgan e’tibor yoki e’tiborsizlik nafaqat uning hayot yo‘lini belgilashi balki millat va mamlakat istiqbolini ham belgilashini unutmaslik kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. 1.07.2017-y.2-bet.
2. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. –159- bet.
3. Mavlonova R., Raxmankulova N. Boshlanich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. O‘quv qo‘llanma, – T.: G‘.G‘ulom, 2013, 152-bet.
4. Мудрик А.В. Введение в социальную педагогику / уч. пособие. Пенза, Институт повышения квалификации, 1984. – 74 с.
5. Мудрик А. В. Социализация человека: учеб. пособие. 3-е изд., испр. и доп. М.: МПСИ ; Воронеж : МОДЕК, 2010. 48-бет.
6. Shodmonova Sh.S. Oilada kichik maktab yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari. Ped. fan. nomz. ... diss. avtoref. – T.: O‘zPFITI, 2001. – 56 bet.
7. Эфроимсон В.П., “Генетика гениальности”. © ООО «Издательство ACT», Москва, 2019. - 175 с.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi ”Davlat ilmiy nashriyoti.2006-yil. 178,332- bet.
9. Пардаев Б.У. Компоненты и факторы социализации школьников, [https://cyberleninka.ru/article/n/komponenty-i-faktory-sotsializatsii
shkolnikov/viewer](https://cyberleninka.ru/article/n/komponenty-i-faktory-sotsializatsii-shkolnikov/viewer)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13924109>

BOSHLANG'ICH SINFLARDA UNLI VA UNDOSH TOVUSH VA HARFLARNI O'RGANISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Sattorova Xadicha Jabborovna

Nizomiy nomidagi TDPU
BTOO'M kafedrasi dotsenti

АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada unli va undosh tovush va harflarni o'rganishda didaktik o'yinlardan foydalangan holda tashkil etish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan savol, topshiriqlardan o'rinni foydalanish masalasi yoritilgan. Shuningdek, didaktik o'yinlarning o'quvchilarini o'qish, yozish va tushunish darajasini oshirishdagi hamda o'quv materiallarini o'zlashtirish sifatini oshirishdagi ahamiyati o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: didaktika, didaktik o'yin, ko'nikma, ta'lim sifati, o'qish malakasi, savol va topshiriqlar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается вопрос организации использования дидактических игр, вопросов, побуждающих учащихся к самостоятельному мышлению, а также правильного использования заданий при изучении гласных, согласных и букв. Также отражено значение дидактических игр в повышении уровня чтения, письма и понимания учащихся и в повышении качества усвоения учебного материала.

Ключевые слова: дидактика, дидактическая игра, умения, качество образования, навыки чтения, вопросы и задания.

ANNOTATION

This article examines the issue of organizing the use of didactic games, questions that encourage students to think independently, as well as the correct use of tasks when studying vowels, consonants and letters. It also reflects the importance of didactic games in improving the level of reading, writing and understanding of students and in improving the quality of assimilation of educational material.

Keywords: didactics, didactic game, skills, quality of education, reading skills, questions and tasks.

O‘quv mashg‘ulotlarini qiziqarli, o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligiga tayanuvchi o‘zaro faol munosabatlar asosida tashkil etishda yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish ta’limiy va tarbiyaviy zaruratga aylandi. Respublikamiz prezidenti SH.M.Mirziyoyev: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”¹ -degan edilar.

O‘quvchini mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka undovchi, faolligini oshirishga xizmat qiluvchi yangi pedagogik texnologiyalar, didaktik o‘yinlar ta’lim jarayonidan o‘rin oldi.

Ma’lumki, boshlang‘ich sinfga qabul qilinib, mакtab оstonasiga ilk qadam qo‘ygan bolaning faoliyatida o‘yin asosiy o‘rinni egallaydi. O‘yin ularning eng sevimli mashg‘uloti bo‘lib, ular har qanday mashg‘ulotni o‘yin bilan uyg‘unlashtirishga harakat qiladilar. Boshlang‘ich ta’lim davrida o‘quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o‘yinlar alohida ahamiyatga ega. Didaktik o‘yinlar jarayonida o‘quvchilar o‘yin qoidalariga qat’iy rioya qilishga o‘rganadilar, inoqlik his – tuyg‘ulari, dunyoqarashlari shakllanib boradi.

Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning xususiyatiga ko‘ra tashkil etilishi kerak. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtirishga, ko‘rgazmalilikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarni toliqtirmaslik, zeriktirmaslik imkonini yaratadi.

Quyida 1-sinf «Ona tili» darslarida qo‘llash mumkin bo‘lgan didaktik o‘yinlar mazmuni bilan tanishtiramiz..

Ona tili darslarida unli va undosh tovushlarni o‘rganishda ”O‘zim tekshiraman”, „U qaysi harf?”, ”Topag‘on”, ”Noto‘g‘ri jumla”, ”Bo‘lishi mumkin emas”,

¹ Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Xalq so‘zi // 2016-yil 16-dekabr.

“Harflarni top”, ”O‘qib ko‘r-chi”, ”Davom ettir”, ”Safar”, ”Sirli so‘z”, ”Zanjir”, ”O‘yin – topishmoq”, ”Bu meniki”, ”Tez javob”, ” o‘yinlarda foydalansak dars samaradorligini oshiradi.

“U qaysi harf?” o‘yinida, stol ustiga bir qancha harflar tasviri teskari terib qo‘yiladi. O‘qituvchi shu harflardan birortasini ta’riflaydi. O‘quvchilar shu belgilar asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar.

Bu o‘yining afzallik tomoni shundaki, undan dars davomida o‘quvchilar diqqatini jamlash, qo‘llarga dam berish maqsadida yoki yangi tovushlar bilan tanishtirish, ona tili darslarida yangi mavzuni bayon qilish jarayonida ham foydalanish mumkin.

Bu o‘yin o‘quvchilarda, ziyraklik, sinchkovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, bu o‘yindan dam olish daqiqalarida ham unumli foydalanish mumkin.

1-variant: U aylana shaklida. Uni biz uchun mo‘tabar bo‘lgan insonga murojaat qilish uchun ishlatalamiz.

(Javob: ”O”)

2-variant: U P harfining o‘rtog‘idir. Bizning nafas olish organizimiz shu harf bilan boshlanadi.

(Javob: “B”)

3-variant: U shunday harfki, unda ikta harf ishtirok etgan, biz bu harf yordamida dunyodagi eng mehnatkash jonzotning bosh harfini bilib olishimiz mumkin.

(Javob: “CH”)

“Davom ettir” o‘yinida, o‘qituvchi ma’lum bir so‘zning boshini boshlab beradi. O‘quvchilar uni davom ettiradilar. Bunda o‘quvchilarda ziyraklik qobiliyati rivojlanib, so‘z boyligi ortadi. Bundan tashqari, ularda mustaqillik, o‘z kuchiga ishonch hissi rivojlanadi.

“Davom ettir” o‘yinida ona tili, o‘qish darslarida yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda foydalanish mumkin.

1-variant: “ Zabar..., ep..., kish...”

2-variant: “Ha..., sa..., kompyu...”.

3-variant: “kutub..., muqad..., o‘quv..., hayvo...”.

Harakatli o‘yinlarga quyidagilar kiradi: “ U nima qilyapti?”, ”Jonli hikoya” va ”Quruvchi”.

“U nima qilyapti” o‘yinida, o‘quvchilardan biri bolalar oldiga chiqib harakat qiladi. O‘quvchilar jamoasi birgalikda uning harakatlarini izohlab berishlari lozim. Bunday o‘yin o‘qish va ona tili darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish, ziyraklik va zeriktirmaslik uchun o‘tkaziladi.

“Jonli hikoya” o‘yinida, o‘qituvchi so‘zlar yozilgan qog‘ozlarni o‘quvchilarga tarqatib beradi. Shundan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilarga hikoya qilib beradi. (Qog‘ozlarda yozilgan so‘zlar birgalikda shu hikoyani hosil qiladi.) O‘qituvchi hikoyani ikkinchi marta o‘qib berganda o‘quvchilar qo‘llaridagi qog‘ozlarni shunday ketma-ketlikda joylashtirishlari kerakki, qog‘ozlarga yozilgan so‘zlar bir butun hikoyani hosil qilishi lozim. Bu o‘yinni o‘tkazishda darslikdagi hikoyalar yoki darslikdan tashqari hikoya va ertaklardan foydalanishlari mumkin.

1-variant: Bahor kelishi bilan havo iliy boshlaydi. Daraxtlar gullab, maysalar ko‘kara boshlaydi.

2-variant: Olimjon ko‘chada yig‘layotgan bolani ko‘rib qoldi. U koptogini ariqqa tushirib yuboribdi. Olimjon bolaning koptogini olib berdi.

3-variant: O‘rmon shohi sher yig‘in o‘tkazdi. Ular tulkixonning ishlarini muhokama qildilar. Tulkixon aybini bo‘yniga oldi.

“Quruvchi” o‘yini o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, harflar va tovushlar mavzusini mustahkamlash qismida yoki darsdan tashqari vaqtida o‘tkazilishi mumkin. O‘qituvchi avvaldan darsga tayyorgarlik ko‘rib, qog‘ozdan yoki penoplast bo‘lakchalaridan “g‘ishtchalar” yasaydi va bu “g‘ishtchalarga” savol yozilgan qog‘ozchalarni yopishtirib chiqadi. “g‘ishtchalar” soni o‘quvchilar soniga teng yoki ko‘p bo‘lishi kerak, guruhlarga “minora” yoki “devor” qurishlari uchun joy ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan bola chiqadi va “g‘ishtcha” ni olib savolni o‘qiydi. Agar savolga bolalar to‘g‘ri javob topsalar o‘zlarining “maydoncha”

lariga “g‘isht” ni teradilar. Agar noto‘g‘ri javob bersalar, o‘qituvchi “g‘ishtcha”ni olib qo‘yadi. O‘yin shu tahlidda barcha o‘quvchilar bittadan“gishtcha” olib bo‘lgunlarga qadar davom etadi. “Qurilish maydonchasi” da eng ko‘p g‘isht tergan o‘quvchilar guruhi g‘olib hisoblanadi. Masalan:

- 1.Jarangli undoshlar qaysilar?
- 2.Unlilar soni nechta?
- 3.O‘zbek tilida nechta tovush bor?
4. Harf birikmalarini sanang...

“Nima yo‘qolib qoldi” o‘yinida, stol ustida bir necha harflar sur’ati tushirilgan kartochkalar joylashtiriladi. O‘quvchilar stol ustini yaxshilab kuzatib, harflarni eslab qoladilar. Shundan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilarga bildirmasdan ularning bittasini olib qo‘yadi. O‘quvchilar stol ustidan nima yo‘qolib qolganini topishlari lozim. Bu o‘yindan darsda va darsdan tashqari mashhg‘ulotlarda foydalanish mumkin.

So‘z o‘yini. O‘quvchilar guruhlarga yoki qatorlarga ajratiladi. Har bir guruh boshidagi o‘quvchiga har xil harf yozilgan qog‘oz tarqatiladi. O‘yin boshlangunga qadar guruh ishtirokchilari qog‘ozga qanday harf yozilganligini ko‘rmasliklari lozim. O‘qituvchi buyruq berishi bilanoq, boshlovchi o‘quvchilar qog‘ozni o‘nglab qarab, unda yozilgan harfni ko‘radilar va shu harf bilan boshlanadigan so‘z topib turgan o‘quvchiga uzatadilar. Guruh yoki qator oxiridagi o‘quvchi oxiri tugagach, qog‘ozni o‘qituvchiga keltirib topshiradi. O‘yinni birinchi bo‘lib tugatgan va so‘zlarni to‘g‘ri yozgan o‘quvchilar guruhi g‘olib sanaladi.

“Harflarni o‘zgartirib, so‘z tuzing!” o‘yini

Bunda xattaxtaga so‘zlar qator qilib yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar 2 guruhga bo‘linadilar. Undosh harflarni o‘zgartirib, yangi so‘zlar tuzishlari kerak bo‘ladi.

Ushbu o‘yin o‘tilgan undosh harflarning o‘quvchilar ongida mustahkam o‘rin egallashida va lug‘at boyligining oshishida xizmat qiladi.

“Bu qanday so‘z” o‘yini

So‘z uch harfdan iborat. Birinchi harf alifboda o‘n 16-o‘rinda, keyingisi 15-o‘rinda va oxirgisi 1-chi o‘rinda turadi. Bu so‘zni topib daftarga yozish. O‘yin shu tariqa davom etadi.

Bu o‘yin o‘quvchining xotirasini mustahkam va chaqqon bo‘lishga undaydi Yuqorida berilgan o‘yinlarning barchasi tovush va harflar haqidagi bilimlarni o‘quvchilarning xotirasidan mustahkam o‘rin egallashida xizmat qiladi.

Demak, Ona tili darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarni topqirlik, sezgirlikka, hozirjavoblikka o‘rgatiladi va ta’limi samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. SH.M. Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –“O‘zbekiston” -2016.56 B.
2. Azizzxo‘jaevaN.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006.
3. Хамраев М.А. Изучение некоторых дополнительных значений указательных местоимений узбекского языка. - Scientific Journal Impact Factor 2023: 5.789
4. Sh.U.Sariyev, G.U.Raxmanova. O‘zbek adabiyotini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiya usullarini qo‘llash. – T.: Science and innovation, 2022. – 531-533-b.
5. Пардаев Б.У.Компоненты и факторы социализации школьников,
6. Sh.U.Sariyev. Boshlang ‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda folklor namunalarining ahamiyati // PEDAGOGS, 2023/6/22.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13924112>

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО И ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

Юлдашева Дилафруз Махамадалиевна

Доцент Ферганского Государственного Университета

Гафарова Лилия Сергеевна

Магистр Ферганского Государственного Университета

Аннотация: Статья выявляет взаимосвязь между экологическим и эстетическим воспитанием дошкольников. В статье представлены педагогические условия концепции эколого-педагогического пространства в дошкольной образовательной организации, согласно развитию экологического сознания, воспитания бережного отношения к природе, учить видеть красоту в ее естественном виде.

Ключевые слова: эколого-педагогическое пространство, игровая деятельность, дошкольный возраст, дошкольная педагогика, будущий воспитатель, педагог, дошкольное образование, воспитатель, способность, активность, экологическая культура, педагогическая способность, инновационная высококлассная деятельность, преподавательская практика, компетентность, креативный подход, педагогические ситуации, ведущий опыт.

Abstract: The article reveals the relationship between ecological and aesthetic education of preschoolers. The article presents the pedagogical conditions of the concept of ecological and pedagogical space in a preschool educational organization, according to the development of ecological consciousness, education of respect for nature, teaching to see beauty in its natural form.

Keywords: ecological and pedagogical space, play activities, preschool age, preschool pedagogy, future educator, teacher, preschool education, educator, ability, activity, environmental culture, pedagogical ability, innovative high-class activities, teaching practice, competence, creative approach, pedagogical situations, leading experience.

Дошкольный возраст – это период активного формирования личности ребенка, закладываются основы его мировоззрения, ценностных ориентаций, экологической культуры и эстетического вкуса. Именно в этот период особенно важно создать условия для гармоничного развития личности, способной бережно относиться к природе, ценить красоту и творить.

Понятие экологического воспитания

Экологическое воспитание – это целенаправленный процесс формирования у детей системы знаний, умений, навыков и ценностных ориентаций, направленных на бережное отношение к окружающей среде, понимание ее целостности и взаимосвязей, а также на развитие экологически ответственного поведения.

Понятие эстетического воспитания

Эстетическое воспитание – это процесс формирования у детей чувства прекрасного, способности воспринимать, понимать и создавать художественные образы, развивать творческие способности, эмоциональную отзывчивость и эстетический вкус.

Взаимосвязь экологического и эстетического воспитания

Экологическое и эстетическое воспитание тесно взаимосвязаны. Красота природы, ее гармония и разнообразие являются источником эстетического наслаждения, формируют у детей чувство любви и уважения к окружающему миру. В свою очередь, эстетическое воспитание способствует развитию экологического сознания, воспитывает бережное отношение к природе, учит видеть красоту в ее естественном виде.

Цели и задачи экологического и эстетического воспитания в дошкольной образовательной организации

Цели

Формирование у детей экологической культуры, основанной на ценностях бережного отношения к природе, понимания ее целостности и взаимосвязей.

Развитие эстетического вкуса, способности воспринимать, понимать и создавать художественные образы, формирование творческих способностей.

Воспитание любви к природе, чувства ответственности за ее сохранение.

Развитие эмоциональной отзывчивости, умения видеть красоту в окружающем мире.

Задачи

Познакомить детей с природой, ее многообразием, взаимосвязями и закономерностями.

Формировать у детей элементарные экологические знания и умения.

Развивать у детей творческие способности, фантазию, воображение.

Воспитывать бережное отношение к природе, чувство ответственности за ее сохранение.

Создать условия для реализации творческого потенциала детей, стимулировать их самостоятельность и инициативу.

Педагогические основы экологического воспитания

Принцип природосообразности: обучение детей взаимодействию с природой, уважению к ее законам и ценностям.

Принцип системности: формирование целостного представления о природе, ее взаимосвязях и зависимостях.

Принцип практической направленности: вовлечение детей в практическую деятельность по уходу за растениями, животными, наблюдению за природными явлениями.

Принцип эмоциональности: развитие у детей эмоциональной отзывчивости на красоту природы, сопереживания к ее обитателям.

Принцип личностно-ориентированного подхода: учет индивидуальных особенностей и интересов детей, создание условий для их самостоятельной деятельности.

Педагогические основы эстетического воспитания

Принцип восприятия: формирование у детей способности видеть и понимать красоту окружающего мира, искусства, природы.

Принцип творчества: поощрение самостоятельной творческой деятельности детей, развитие их эстетических способностей.

Принцип эмоциональности: воспитание у детей эмоциональной отзывчивости на прекрасное, развитие эстетических чувств.

Принцип единства познавательного и эмоционального: сочетание познавательной и эмоциональной составляющих в процессе эстетического воспитания.

Принцип интеграции: включение элементов эстетического воспитания в различные виды деятельности детей.

Педагогические условия:

Создание развивающей предметно-пространственной среды:

Природные уголки: создание мини-садов, аквариумов, уголков с комнатными растениями, позволяющих детям наблюдать за живой природой, ухаживать за ней, развивать наблюдательность и познавательный интерес.

Экологические тропы: организация прогулок по территории ДОО с целью наблюдения за сезонными изменениями в природе, изучением растительного и животного мира.

Игровая зона: наличие экологических игр, направленных на формирование экологических знаний, развитие экологического мышления и навыков поведения в природе.

Библиотека: доступность экологической литературы, книг о природе, животных, растениях, стимулирующих интерес к чтению и расширяющих знания об окружающем мире.

Проектирование экологического и эстетического воспитания в ДОО

Разработка образовательной программы: определение целей, задач, содержания, форм и методов работы по экологическому и эстетическому воспитанию.

Создание развивающей предметно-пространственной среды: обеспечение условий для реализации образовательной программы, создание уголков природы, творческих мастерских, выставок детских работ.

Планирование образовательного процесса: разработка тематических планов, сценариев занятий, игр, праздников.

Подбор методических материалов: использование разнообразных дидактических материалов, художественной литературы, музыкальных произведений, видеоматериалов.

Взаимодействие с родителями: вовлечение родителей в процесс экологического и эстетического воспитания детей.

Заключение

Проектирование экологического и эстетического воспитания в ДОО – это сложный и ответственный процесс, требующий глубокого знания педагогических основ, творческого подхода и постоянного совершенствования. Цель этого процесса – формирование у детей экологической культуры, эстетического вкуса, любви к природе и искусству, что станет основой для их гармоничного развития и становления личности.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. [https://www.ispring.ru/elearning-insights/chto-takoe-pedagogicheskiy-dizayn 2.Yuldasheva](https://www.ispring.ru/elearning-insights/chto-takoe-pedagogicheskiy-dizayn-2.Yuldasheva) D.M.Anthropotsentris Approash To Children'S Speesh Study. Sestion 2: Linguistiss Theory,Applied Linguistiss. Sollestion Of Materials Of The International Online Sonferense.Www.Researsh-Support-Senter.Som 2020.92-95
2. Yuldasheva D.M. The Methods Of Speesh Development Of Presshool Children. Epra Internashinal Jurnal Of Multidissiplinray Researsh(Ijmr). Impast Fastor: 7.6.11.November.
3. ДМ Юлдашева, Д Асқарова, М Зоҳидова. Ўзбек болалар нутқига доир матнларда лақуна. Academic research in educational sciences 2 (2), 926-931.
4. ДЮ Махамадалиевна. Использование зоонимов в колыбельной песне-«алла», как аспект этнолингвистики. Ulrich's Periodicals Directory.
5. ДМ Юлдашева. Синтактик тақрорларнинг бадиий-эстетик имкониятлари Международный журнал ИСКУССТВО СЛОВА. 2019.5-сон.
6. YD Maxamadaliievna. Use of presidential names in uzbek children's texts. Gospodarka i Innowacje. 22, 68-70.-
7. ДМ Юлдашева. Болалар фольклорида креол (уйғун) матннинг ифодаланиши. Молодой ученый, 607-609.
8. “Илк кадам” Учебная программа, (2022)
9. Хамитовна, Р. И. (2022). Методы экологического воспитания в процессе Приобщения дошкольников к природе нашей Страны. европейский ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ, 2 (2), 245-249.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13952605>

TOLERANTLIK – TAFAKKURI KO‘P QIRRALI JARAYON

Aytbaeva Gulchexra Yermekbaevna

Guliston davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tolerantlik tushunchasining turkiy tillardagi ma’nosi va bu haqdagi turli fikrlar hamda mustaqillik yilarida bu tushunchaning ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilishi, yoshlar tafakkurida bag‘rikenglik tafakkurini shakllantirishga oid ilmiy tadqiqotlarga keng e’tibor berila boshlaganligi, shu bilan birga uning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy tushuncha sifatida mafkuraviy jarayonlarga yangidan kirib kelishi, shuningdek tolerantlik tafakkuri ko‘p qirrali jarayon ekanligi haqida fikrlar yuritiladi.

Kalir so‘zlar: yoshlar tafakkuri, tolerantlik, tolerantlik tafakkuri, mafkuraviy jarayon, to‘zimlilik, totuvlik, chidamlilik, birdamlik, milliy va ma’naviy qadriyatlar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается значение понятия толерантность в тюркских языках и различные мнения о нем, а также научно-теоретическое изучение этого понятия в годы независимости, широкое внимание стали уделяться научным исследованиям формирования толерантного мышления в молодежной мысли, в качестве философского понятия рассматривается новое проникновение идеологические процессы, а также мысль о том, что толерантное мышление-многогранный процесс.

Ключевые слова: молодежное мышление, толерантность, толерантное мышление, создательный процесс, добрососедские отношения, системность, гармония, устойчивость, солидарность, национальные и духовные ценности.

ANNOTATION

This article examines the meaning of the concept of tolerance in the Turkic languages and various opinions about it, as well as the scientific and theoretical study of this concept in the years of independence, wide attention was paid to scientific research on the formation of tolerant thinking in youth thought, a new penetration of ideological processes is considered as a philosophical concept, as well as the idea that tolerant thinking- a multifaceted process.

Key words: youth thinking, tolerance, tolerant thinking, creative process, good neighborly relations, consistency, harmony, stability, solidarity, national and spiritual values.

Hozirgi paytlarda internetlarda, ya’ni ijtimoiy tarmoqlarda o‘zgacharoq fikrlarga nisbatan betoqatlik oshib, kishilarni yoppasiga radikal, g‘arbparastlikda ayblash ko‘payib borayotganini payqash mumkin. O‘zining fikriga qo‘silmagan ikkinchi tomonga turli tamg‘alarni yopishtirib, haqorat qilishgacha o‘tadigan ayrim tarmoq foydalanuvchilarining o‘zlariga nisbatan bosim bo‘lganida bag‘rikenglik haqida yozishlari esa aslida tolerantlik tushunchasi qanchalar muhim ekanini ko‘rsatadi. Biroq u faqat do‘ppi tor kelganda qo‘llaniladigan tushuncha emas. Tolerantlik o‘zidan boshqalarning shaxsiy xususiyat va qarashlariga nisbatan sabrli va bag‘rikeng bo‘lishni nazarda tutadi. Uning millati yo dini yo‘q va har bir davlat hamda fuqaroning muhim xususiyatlaridan sanaladi.

Tolerantlik o‘zgacha dunyoqarash, turmush tarzi, xulq-atvor va urf-odatlarga nisbatan bag‘rikenglik tushunchasini bildiradi. U befarqlik yoki boshqacha qarashlarni qabul qilish kerakligini emas, balki boshqalarning shaxsiy e’tiqodi va qadriyatlariga ko‘ra yashashiga toqatli bo‘lishni anglatadi. Bu xususiyat dunyodagi turli xalqlar, millatlar va dinlarni hurmat qilish uchun ham muhim sanaladi. Shu bialn birga, tolerantlik insonning turli nuqtai-nazarlarga ochiqligini va o‘ziga ishonchi yuqoriliginini bildiradi.

“Tolerantlik” deb nomlangan atama xalqaro termin so‘z hisoblangani bilan, uning mazmun-mohiyati, o‘zimizning oddiy to‘zimlilik so‘zining muqobili hisolanadi. Bu odatiy turmushdagi qo‘snilarning qo‘snilarga degan to‘zimliligidan boshlab, keng ko‘lamdagi madaniyatlar, millatlar va e’latlar orasidagi o‘zaro to‘zimlilikni, totuvlikni anglatadi. “Tolerantlik” atamasi lotin tilidan olingan bo‘lib, qozoqcha – chidamlilik, o‘zga (boshqa) qarashlarga, xatti-harakatlarga, turli xarakterlarga, odatlarga to‘zimlilik va tan olish ma’nosida qo‘llaniladi. Barcha insoniyatning millatiga, nasliga, sig‘inadigan dinlariga qaramasdan, to‘zimlilik, tan olish, tushunish va ularni o‘zinikidek qabul qilish xususiyatlarini bir so‘z bilan tolerantlik (bag‘rikenglik) deyish mumkin². Bu bilan bag‘rikenglik insonning ichki ruhiy holati ekanligi tasdiqlanadi. Vaholanki, ongi, haqiqatgo‘yligi, ko‘tarinkи kayfiyati, ishga munosabati, salomatlik darajasi, qiziqishi, ishonchi, xavfsizligi, qo‘rquv hissi, ochko‘zligi, javobgarlikni o‘z

zimmasiga olishi, ishq-muhabbatining kuchliligi, insonlarga haqiqatan ochiqdan ochiq gapira olishi, yetakchi bo‘la olishi, tabiatan o‘z xususiyatlarini muvofiqlashtira olishi, muloqot va munosabatga yengil kirisha olishi, ruhiy tetikligi kabilar tushuniladi.

Mustaqillik yillarida tolerantlik tushunchasi mazmunini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish, yoshlar tafakkurida tolerantlik tafakkurini shakllantirishga doir ilmiy tadqiqotlarga keng e’tibor berila boshlandi. Aynan mustaqillik yillarida tolerantlikning falsafiy-ma’naviy qirralarini tadqiq etish borasida ma’lum yutuqlarga erishildi. Chunki, Sobiq Ittifoq sharoitida diniy e’tiqodni inkor etish mafkurasi hukmronligi bois tolerantlik tushunchasi yot g‘oyalar tarkibidan o‘rin olgan bo‘lib, mustaqillik ana shu xato holatning to‘g‘rlanishiga, uning ilmiy idrok etish jarayoniga qaytishiga imkon yaratdi. Tolerantlik ijtimoiy-siyosiy va falsafiy tushuncha sifatida mafkuraviy jarayonlarga yangidan kirib keldi. Tolerantlik tafakkuri ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, uning turli yo‘nalishlari asosida ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borish faoliyatি boshlandi¹.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasida amalga oshirayotgan siyosati natijasida yaratilayotgan o‘quv dasturlari va darsliklar o‘quvchilarda o‘zaro tushunuvchanlikni mustahkamlashga xizmat qilib, birdamlik, etnik, ijtimoiy, madaniy hamda diniy aloqalarni yanada yaqinlashtirishi kerak. Shu bilan bir qatorda, tolerantlik tuyg‘usi o‘quvchi yoshlarda mustaqil fikrlesh, o‘z-o‘zini tanqidiy anglash, barcha xalqlar, elatlar va millatlarning milliy, ma’naviy qadriyatlarini hurmat qilishga o‘rgatishi lozim.

Ta’kidlash lozimki, tolerantlik – bu chidamlilik yoki matonat degani emas. Chidamlilik – bu og‘riq yoki zo‘ravonlik ta’siri ostida paydo bo‘ladigan hissiyot va harakatni ifodalasa, matonat – shaxsiy yoki jamoaviy xususiyat hisoblanib, dunyonı yaxlit, serqirra hodisa sifatida idrok etishni anglatadi. O‘quvchilarda tolerantlik tushunchasini shakllantirishga yo‘nal-tirilgan pedagogik jarayon quyidagi tamoyil asosida tashkil etilishi lozim. Har bir o‘quvchining nuqtai nazari, boshqalarnikiga yaqin yoki ulardan farqli bo‘lib, o‘zida boshqa muqobil fikrni mujassamlashtirmaydi.

¹ Usmonova V. Tolerantlik sharq mutafakkirlari talqinida. Kurs ishi. – Buxoro, 2012.

O‘quvchilardagi bunday holat mavjud pedagogik vaziyat yoki taqdim etilayotgan bilimlarga bog‘liq bo‘lib qolmay, muayyan jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy voqelik mahsuli hamdir. Umuman olganda, tolerantlik tushunchalari va ularni o‘quvchilarda shakllantirish muammosi ijtimoiy hayotda shaxslar, dinlar, millatlararo farqlar, qarama-qarshilik va mojarolarning mavjudligi bilan chambarchas bog‘liq. Tolerantlik tuyg‘usi mojarolarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan sermahsul fazilat hisoblanib, har bir jamiyatda yaqqol mavjud bo‘lgan tengsizlik va bahs-munozaralarini zo‘ravonlik asosida namoyon bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydigan tuyg‘udir.

Shunday qilib, tolerantlik tushunchasi ko‘pgina manbalarda chidamlilik bilan tenglashtirilsa-da, nisbatan yorqin va faol mazmunga ega. Ya’ni, tolerantlik – bu xalqlar, millatlar, ijtimoiy guruhlar, shuningdek, turli madaniy, milliy, diniy va ijtimoiy muhitda yashaydigan kishilar o‘rtasida ijobiy hamkorlikni ta’minalashga xizmat qiladigan faol ma’naviy qarashlar va chidamlilikka bo‘lgan ruhiy tayyorgarlikdir¹.

Tolerantlik tuyg‘usi hissiy, aqliy rivojlanish, mehnat ko‘nikmalarini egallashdan iborat bo‘lib, o‘z aqidalari va ongini o‘zgartirish orqali shakllanadigan ruhiy holatdir. Tolerantlikni ifodalovchi muhim vositalardan biri o‘zaro dialog, ya’ni muloqotdir. Bunday muloqot asosan ikki kishi, ya’ni o‘qituvchi va o‘quvchi orasida amalga oshiriladi. Tolerantlik tarbiyasi o‘quvchilarni ijtimoiy hayotda chidamlilik, bardosh, o‘zaro muloqot, toqatli bo‘lish kabilarga o‘rgatadi.

Butun jahonda tolerantlik turli xalqlarni birlashtirib, bir millatni yana-da jipslashtirarkan, ayniqsa, biz, bir-birimizning fikrlarimiz va dunyoqarashimizga toqatli bo‘lolishimiz, hurmat ko‘rsatishimiz butun jamiyat uchun faqat foyda keltiradi. Yer yuzida milliardlab aholi bo‘lsa, ularni faqat geografik chiziqlargina ajratib turadi. Boshqalar biz ishongan narsaga ishonmasligi, biz kabi fikrlamasligi va hatto, bizdek ko‘rinish va xususiyatlarga ega bo‘lmasligi ham mumkin, biroq ular ham biz kabi inson. Mana shuning o‘zi insoniy munosabat uchun yetarli bo‘lishi kerak.

¹ Akramova G.R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tolerantlik tushunchalarini shakllantirishning didaktik asoslari. Dissertatsiya. – Toshkent, 2007.

Yuqoridagi tahlildan ko‘rinib turibdiki, tolerantlik dastlabki davrda tenglik, boshqalarga chiday olish, mexr-shafqat ma’nolarida tushunilgan, bag‘rikenglik tushunchasi esa bu ma’nolarni o‘ziga singdira oladi. Tolerantlik tushunchasi ko‘p jihatlarga ega bo‘lganligi uchun bu tushunchalarni o‘z ichiga oladi va ulardangina iborat emas, ya’ni begona qarashlarni o‘z qarashlari kabi hurmat qila olish, muhabbat bilan qarash kabi g‘oyalarni ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ravshanov F. Tolerantlik: tarix va taraqqiyot. Ilmiy tahliliy axborot, 1-son 2018-yil. Vol. 2018. Iss. 1, Article 17. 80-83-betlar;
2. Akramova G.R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tolerantlik tushunchalarini shakllantirishning didaktik asoslari. – Toshkent, 2007;
3. Madaniyatshunoslik: oliy ta’lim va kolledj talabalari uchun darslik. Almati: Raritet, 2005. – 416 bet. <http://sabaq.kz/7485/>;
4. Большая энциклопедия. – М.: Мультимедия-издания «Кирилла и Мефодия», 2008.
5. G.E.Qo‘sboqova. Yoshlarda tolerantlik tafakkurini shakllantirish- ning pedagogik asoslari. Monografiya. – Toshkent, 2015, – B.130; Usmonova V. Tolerantlik sharq mutafakkirlari talqinida. – Buxoro, 2012;
6. Yegemen.kz: <https://egemen.kz/article/37352-toleranttylyq-%E2%80%93-beybitshilik-kepili>;

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13952642>

CHO'L IQLIMI VA ZAMONAVIY TURAR JOYLAR: KO'P QAVATLI UYLAR HOVLISINI LOYIHALASHDA LANDSHAFT DIZAYNINING AHAMIYATI

A.A. Saidov

Prof.

Ubaydullayeva Dilafroz

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti magistri

E-mail: dilya8730@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada cho'l zonasidagi ko'p qavatli uylar hovlisida rekreatsion zonalarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, landshaft dizaynida qo'llaniladigan innovatsion yechimlar hamda ekologik muammolarni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: cho'l zonasi, teksturalar kombinatsiyasi, eroziya, bioxilma-xillik, vertikal bog'dorchilik.

Аннотация: В данной статье анализируются особенности организации рекреационных зон во дворах многоквартирных домов в пустынной зоне, инновационные решения в ландшафтном дизайне, а также пути решения экологических проблем.

Ключевые слова: пустынная зона, сочетание текстур, эрозия, биоразнообразие, вертикальное озеленение.

Abstract: This article explores the specific features of organizing recreational areas in the courtyards of multi-story buildings in desert zones, innovative solutions in landscape design, and ways to address environmental challenges.

Keywords: desert zone, texture combination, erosion, biodiversity, vertical gardening.

Kirish. O‘zbekistonning cho‘l zonalarida ko‘p qavatli uylar hovlisining landshaft dizayni - bu nafaqat estetik jihatdan muhim, balki ekologik va ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo‘lgan murakkab masaladir. Qurg‘oqchil iqlim sharoitida suv resurslarining cheklanganligi, tuproqning past unumdarligi va kuchli shamollar landshaft dizaynini loyihalashtirishda o‘ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shu nuqtai-nazardan, mazkur masalaga to‘g‘ri yondashuv va innovatsion yechimlar orqali ushbu muammolarni hal qilib, cho‘l muhitida ham go‘zal, funksional va ekologik barqaror landshaft yaratish mumkin. Ayniqsa, O‘zbekistonning 29 foizini tashkil etuvchi cho‘l zonalarida bunday loyihalarni amalga oshirishda ekologik muammolarga alohida e’tibor qaratish lozim. Bundan tashqari, sanoat, transport va qishloq xo‘jaligining jadal rivojlanishi natijasida tabiiy resurslarga bosim ortib, atrof-muhitga salbiy ta’sir kuchaymoqda. Shu bois, shaharlarda rekreatsion zonalarni barpo etishda tabiiy muvozanatni saqlash, suv va tuproq resurslaridan oqilona foydalanish, ifloslanishning oldini olish kabi ekologik jihatlarga alohida e’tibor qaratish zarur.

Asosiy qism: Ko‘p qavatli uylar bilan o‘ralgan cho‘l shaharlarida aholining dam olishi, toza havoda sayr qilishi va tabiat bilan muloqotda bo‘lishi uchun qulay sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu esa, shahar aholisining salomatligini mustahkamlash, stressni kamaytirish va hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, ko‘p qavatli uylar hovlisida rekreatsion zonalarni loyihalashtirishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

1.Ekologik jihatlar: O‘zbekistonning cho‘l zonalarida ko‘p qavatli uylar hovlisida rekreatsion zonalarni tashkil etishda ekologik jihatlarga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu nafaqat hovlining go‘zalligini ta’minlash, balki atrof-muhitni muhofaza qilish va kelajak avlodlar uchun sog‘lom muhitni saqlab qolish uchun ham muhimdir. Ekologik jihatlarga qurg‘oqchilikka chidamli va mahalliy o‘simplik turlaridan foydalanish, suvni tejash texnologiyalarini qo‘llash, tuproq unumdarligini oshirish va ifloslanishni oldini olish kabi jihatlarni misol keltirish mumkin. Cho‘l zonasida suv resurslari cheklanganligi sababli, landshaft dizaynida suvni tejashga qaratilgan texnologiyalarni qo‘llash zarur. Qurg‘oqchilikka chidamli o‘simpliklarni

tanlash, tomchilatib sug‘orish tizimlarini o‘rnatish, yomg‘ir suvini yig‘ish va qayta ishlatish kabi usullar suv resurslaridan unumli foydalanish imkonini beradi. Shu bilan birga, mahalliy o‘simpliklar cho‘l sharoitiga moslashgan bo‘lib, kam parvarish talab qiladi va suvni tejamkorlik bilan ishlatadi.

2. Funksionallik: Ko‘p qavatli uylar hovlisining funksionalligi uning aholisi uchun qanchalik qulay va foydali ekanligini belgilaydi. Hovlining o‘lchami va joylashuviga mos ravishda turli rekreatsion elementlarni joylashtirish orqali aholining turli ehtiyojlarini qondirish, dam olish va hordiq chiqarish uchun qulay sharoit yaratish, shuningdek, ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishga ko‘maklashish mumkin. Bunda hovlining o‘lchami rekreatsion zonalarni tashkil etishda asosiy omillardan biri bo‘lib, kichik hovlilarda har bir kvadrat metrdan unumli foydalanish, ko‘p funksiyali elementlarni tanlash va vertikal bog‘dorchilik kabi usullarni qo‘llash muhim. Keng hovlilarda esa turli zonalarni (dam olish zonasasi, o‘yin maydonchasi, sport zonasasi va boshqalar) ajratish, xilma-xil o‘simpliklar va landshaft elementlaridan foydalanish orqali yanada boy va qiziqarli muhit yaratish mumkin. Bunday landshaft dizaynni yaratishda hovlining o‘lachamidan tashqari, uning joylashuvini inobatga olish zarur. Quyosh nuri tushadigan joylarni aniqlash, shamol yo‘nalishini hisobga olish va hovlining atrofidagi binolar va boshqa obyektlar bilan uyg‘unlikni ta’minlash lozim. Masalan, quyoshli joylarga ochiq dam olish zonalari yoki o‘yin maydonchalarini joylashtirish, shamolga ochiq tomonlarga esa shamol himoya to‘siqlarini o‘rnatish yoki shamolga chidamli o‘simpliklar ekish maqsadga muvofiqliрdir.

3. Estetika: Ko‘p qavatli uylar hovlisining estetikasi uning aholisi va mehmonlarida qoldiradigan birinchi taassurotni belgilaydi. Cho‘l zonasida ham go‘zal, jozibador va xilma-xil landshaft dizaynni yaratish mumkin. Buning uchun o‘simpliklar, ranglar, teksturalar va boshqa dizayn elementlaridan mohirona foydalanish, shuningdek, hovlining umumiy ko‘rinishiga mos va uyg‘un muhitni yaratish lozim. Masalan, cho‘l zonasida o‘simpliklarning rangi ko‘pincha yashil va jigarrang tuslarda bo‘ladi. Lekin, bu ranglarga turli xil gullar, mevali daraxtlar va rang-barang bargli butalar qo‘shib, hovliga jonlanish va xilma-xillik kiritish mumkin. Shuningdek, turli

o‘lchamdagи va shakldagi o‘simliklar, shuningdek, tosh, yog‘och va boshqa materiallarni birlashtirish orqali hovliga qiziqarli teksturalar va vizual effektlar qo‘sish mumkin. Bundan tashqari, kichik hovlilarda vertikal bog‘dorchilik usullaridan foydalanish orqali ko‘kalamzorlashtirish maydonini oshirish va hovliga o‘zgacha ko‘rinish beradi. Ko‘p qavatli uylar hovlisida estetik jozibadorlikni oshirish uchun baland daraxtlar, o‘rtal bo‘yli butalar va past o‘suvchi o‘simliklarni birgalikda ishlatish orqali hovlida qavatma-qavatlik va chuqurlik hissini yaratish mumkin.

4. Ijtimoiy jihatlar: Ko‘p qavatli uylar hovlisi nafaqat turar joy aholisi uchun dam olish va vaqt o‘tkazish maskani, balki ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish, turli yoshdagi va qiziqishdagi odamlarning bir-biri bilan muloqot qilish imkoniyatini yaratadigan muhim ijtimoiy makon hamdir. Shuning uchun, landshaft dizaynini loyihalashtirishda aholining turli yosh guruhlari va ehtiyojlarini hisobga olish, hamma uchun qulay va xavfsiz muhitni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish uchun jamoa bog‘lari, ochiq havoda tadbirlar o‘tkazish uchun maydonlar va ko‘p funksiyali maydonlar tashkil etish mumkin. Hovlida hamma uchun qulaylikni ta’minlash maqsadida nogironligi bo‘lgan insonlar uchun qulayliklar yaratish, keksalar va bolalar uchun xavfsizlik choralarini ko‘rish, shuningdek, yetarli darajada tungi yoritishni ta’minlash lozim.

Xulosa. Cho‘l iqlimi sharoitida ko‘p qavatli uylar hovlisini loyihalash murakkab, ammo muhim vazifadir. O‘zbekistonda cho‘l hududlarini rivojlantirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ayniqsa, ekologiya va tabiiy resurslar muammosi tobora jiddiyashib borayotgan bir paytda, cho‘l zonalarining landshaft dizaynida ham ekologik jihatlarga alohida e’tibor qaratish lozim. Cho‘l geo majmularining mavjud imkoniyatlarini tahlil qilish va baholash, ularni ilmiy va amaliy asosda rivojlantirish yo‘llarini ishlab chiqish muhimdir. Bu borada landshaft dizayni cho‘l hududlarining tabiiy resurslaridan unumli va manzarali tarzda foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [Elektron resurs] “O‘zbekiston respublikasida landshaft dizaynini rivojlantirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 223-son Qarori: Doimiy havola: <https://lex.uz/en/docs/-2223599>
2. Abdinazarov S. Botanika bog‘lari – davlatning milliy mulki // Fan va turmush. – 2024. – №.1
3. Balgaeva Sh. O‘zbekiston qishloqlarida landshaft arxitekturasini shakllantirish. O‘quv qo‘llanma. –Samarqand, 2021.
4. Isamuhamedova D.U., Adilova L.A. Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi. –Toshkent: Cho‘lpon, 2009.
5. Isamuxamedova D. U. Adilova L.A. Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi: 1 qism, darslik / O‘zR Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi. Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
6. Rahimov K.D., Uralov A.S. Landshaft arxitekturasi obyektlarini loyihalash. – Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2015.
7. Xolova R. O‘zbekiston cho‘l zonasida joylashgan shaharlar rekreatsion zonalarining landshaft dizayni // Sustainability of education socio-economic science theory. – 2022. – №.2/18.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13952668>

BELGINING ASIMMETRIK DUALIZMI

Aytbayev Dilshodxuja Temirbayevich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professor vazifasini
bajaruvchi, filologiya fanlari doktori (DSc)

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается вопрос о соотношении формы и содержания, то есть о том, что формальная и содержательная основы знака не всегда пропорциональны друг другу, и что эта асимметрия исследуется мировыми и узбекскими лингвистами. В качестве альтернативы говорят о том, что форма и содержание находятся в диалектической связи в каждой значимой единице, что невозможно отличить выраженное от выражающего, что при определении сущности языковых единиц необходимо опираться как на формальные, так и на содержательные её аспекты.

Ключевые слова: знак, асимметрия, отношение формы и содержания, асимметричный дуализм, омонимия, синонимия, многозначность, омонимические единицы, омосемические единицы, сема, морфема, единицы уровня, диалектное общение, языковые единицы.

ANNOTATION

This article will focus on the relationship of form and content, that is, on the fact that the form and content of the sign are not always proportional to each other, and on the research of this asymmetry by the world and Uzbek linguists. An alternative is that form and content are in dialectical contact with each meaningful unit, that it is impossible to distinguish between the expressed and the expressive, that in determining the essence of linguistic units it is both formative and content.

Keywords: sign, asymmetry, relationship of form and content, asymmetric dualism, homonymy, synonymy, polysemy, homonymic units, omosemic units, sema, morpheme, sath units, dialectical communication, linguistic units.

Tilda shunday hodisalar mavjudki, ular shakl va mazmun munosabatini chuqurroq tahlil qilishni taqozo qiladi. Xususan, omonimiya, sinonimiya hodisalari belgining shakli va mazmuni o'rtasidagi munosabatlarning murakkab xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi.

Praga tilshunoslik maktabi vakillari fikriga ko'ra, omosemiya – bu bir elementning turli shakllar orqali ifodalanishi: masalan, *nes-u* “я *несу*”, *куриj -i* “я *покупаю*”, *dela - m* “я *делаю*”; sinonimiya – mazmuni bir-birirga yaqin nomlar: *bida* “*беда*”, *nouze* “*нужда*”, *nedostatek* “*нехватка*”.

Vladimir Skalichkaning fikricha, belgi har doim omosemik birlik hisoblanadi, ya'ni u har doim bir mazmunni ifodalaydi. U har doim bir xil nomga ega bo'lgan omonimik birlik bilan ifodalanadi [4; 119-127].

Ko'rindiki, Praga lingvistik to'garagiga a'zo bo'lgan olimlar belgining shakliy tomoni uchun omonimiya, mazmuniy asosi uchun omosemiya atamalarini qo'llagan holda, ular o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritib berishga harakat qiladilar. Ularning fikrlaricha, omonimik birlik chegarasi, odatda, omosemik birlik chegarasiga mos tushadi. Ayrim holatlarda omonimik birliklar hajmi omosemik birliklar hajmidan kengroq bo'lishi mumkin. Shu tarzda omonimiya va omonimik guruhi shakllanadi. Agar omosemik birlik hajmi kengroq bo'lsa, omosemiya va omosemik guruuh vujudga keladi. Bunda omonimik guruuh shakliy asosga, omosemik guruuh esa mazmuniy asosga ega. Ko'rindiki, shakl va mazmun chegarasi aniq belgilangan.

Demak, belgining shakliy va mazmuniy asoslari har doim ham bir-biriga mutanosib bo'lavermaydi. Bunday nomutanosiblikni Sergey Karsevskiy belgining asimetrik dualizmi deb nomlaydi. Sergey Karsevskiyning ta'kidlashicha, belgi va mazmun bir-birini to'liq qoplamataydi. Ularning chegaralari hamma nuqtalarda ham mos tushmasligi mumkin: bir xil belgi bir necha vazifaga ega bo'lishi, bir xil mazmun bir necha belgi orqali ifodalanishi mumkin. Har qanday belgi bir vaqtning o'zida potensial “omonim” va “sinonim”dir. Ya'ni ular aqliy hodisalarning bu ikki qatorining kelishuvidan iborat [2; 85-90].

Omonimik va omosemik birliklarning asimmetrik dualizmi til tizimida bir qancha murakkabliklarni keltirib chiqaradi. “Shuning uchun, – deydi Skalichka, har bir til turli yo‘llar bilan turli darajada bu muammoni chetlab o‘tishga harakat qiladi” [4; 119-127]. Uning fikricha, chek tili rivojlangan asimmetrik dualizmga ega bo‘lgan til hisoblanadi. Bu tilda asimmetrik dualizmga muhim vazifa yuklanadi, chunki lisoniy belgini o‘rganishda uning ahamiyati katta. Turkiy tillar esa asimetriyaga kam beriluvchi tillar sirasiga kiradi [4; 119-127].

Praga lingistik to‘garagiga a’zo bo‘lgan olimlarining kuzatishlaricha, qo‘sishchalarining (fleksiyaning) omonimik va omosemik imkoniyati o‘zakka nisbatan kengroq. Ma’noga ega bo‘lgan eng kichik lisoniy birlikka nisbatan Praga maktabi olimlari *sema* terminini qo‘llaydilar. Semaning shakliy qurshovini ifodalash uchun esa *morfema* termini qo‘llaniladi. Bir morfema bir qancha semani ifodalashi va u omonimiyanı keltirib chiqarishi ta’kidlangani holda, omosemiya, ya’ni bir semaning bir necha morfemalar orqali ifodalanishi kam uchrovchi hodisa ekanligi uqtiriladi. Asimetrik dualizmning til sathlarida amal qilishini kuzatar ekanlar, tilning akustik-motor tomoni ham o‘zining sema-morfema sathida turuvchi birligiga egaligi va bunday birlik bo‘g‘in ekanligi aytildi. Demak, dualizm universal hodisa sanalib, uni tilning barcha sathlarida kuzatish mumkin.

Tilning barcha sath birliklarida dualizmning namoyon bo‘lishini tahlil qilar ekan, Vladimir Skalichka jumla (высказывание) sathida asimetrik dualizmning amal qilishi mumkin emasligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, gaplar birlashib, jumlalarni hosil qiladi. Jumla til tizimining yuqori sath birligi sanaladi. Ular o‘ziga yaqin quyi sath birliklari – gaplar singari klishe-gaplar¹ orqali ifodalanadi. Shu sababli jumla alohida formal tavsifga muhtoj emas. [4; 119-127]

Bizga ma’lumki, quyi sath birliklari yuqori sath birliklari uchun qurilish materiali bo‘lib xizmat qiladi. Ularning sintagmatik munosabatga kirishishi asosida yuqori sath birliklari hosil bo‘ladi. Bunga muvofiq, quyi sath birliklarining o‘zgarishi

¹ V.Skalichka fikricha, gaplar, odatda, klishe gaplar orqali ifodalanadi. Har bir tilda gap qurilishining o‘ziga xos tiplari mavjud bo‘lib, ular klishe deyiladi.

yuqori sath birliklarining ham o‘zgarishiga turtki bo‘ladi. Shu bois Vladimir Skalichkaning yuqoridagi fikrlariga qo‘shilib bo‘lmaydi.

O‘zbek tilshunosligida ham lisoniy birliklarning semantik va sintaktik munosabatlari masalasida diqqatga sazovor tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, professor N.Mahmudov tomonidan o‘zbek tilida sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya masalasi monografik planda o‘rganilgan, ergash gapli qo‘shma gaplarda shakl va mazmun munosabati haqida ham ma’lumot berilgan [3; 148]. Shu bilan bir qatorda, o‘zbek tilining turli sath birliklarida shakliy va mazmuniy nomuvofiqlik masalasiga doir A.Nurmonov, D.Lutfullayeva, M.Mirtojiyev, A.Berdialihev, A.Sayfullayeva, A.Mamajonov, M.Xolboyeva, R.Abdusamatov, M.Mamatov, N.Ahmedova, M.Haynazarovalarning ishlari ana shunday izlanishlardan bo‘lib, ular o‘zbek tilida lisoniy birliklar o‘rtasidagi asimmetriya hodisasi va unga olib keluvchi holatlarni tadqiq qilishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Lekin shunday bo‘lishiga qaramay, o‘zbek tilshunosligida qo‘shma gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya va mazkur hodisani yuzaga olib keluvchi holatlar masalasi monografik planda o‘rganilmagan.

O‘zbek tilshunosligida prof. N.Mahmudov sodda gaplarda shakl va mazmun munosabatini tahlil qilar ekan, sodda gap doirasidagi mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik tildagi tejash tamoyilining amal qilishi sifatida namoyon bo‘lsa, qo‘shma gaplardagi bunday nomuvofiqlikning zamini tildagi ortiqchalilik tendensiyasiga borib taqalishini ta’kidlaydi [3; 148]. Uning fikricha, bir denotativ voqeа ifodalangan ergash gapli qo‘shma gaplarda mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik har doim mavjud bo‘ladi va buning yuzaga kelishi tildagi ortiqchalilik tendensiyasiga borib taqaladi.

Shu o‘rinda bir mulohaza tug‘iladi. Sodda gap doirasidagi mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlikning tildagi tejash tamoyili asosida yuzaga kelishini e’tirof etish mumkin, lekin qo‘shma gap doirasidagi mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik-ning yuzaga kelishini faqat ortiqchalilik tendensiyasi bilan bog‘lash to‘g‘ri emasdek ko‘rinadi. Chunki bir qarashda ortiqchadek tuyulgan bo‘lak – gap, masalan, *Bilamizki, reja bilan qilingan ish yaxshi natija beradi* gapidagi *bilamizki* qismi aslida qisqarishning eng

oxirgi nuqtasiga uchrashi natijasida paydo bo‘lgan va qo‘shma gapning modusiga aylangan. (*Biz juda yaxshi bilamiz* → *biz yaxshi bilamiz* → *biz bilamiz* → *bilamiz*). Dastlab bu bo‘lak mustaqil gap sifatida borliqdagi biron-bir voqeа-hodisa haqida ma’lumotga ega ekanlikni ifodalovchi propozitsiyaga ega bo‘lgan. Shuning uchun ergashgan qo‘shma gaplarning mazmuniy-sintaktik nomuvofiqligini faqat ortiqchalik bilan emas, tejash tamoyili bilan ham asoslash mumkin, ya’ni ortiqchalilik tejash natijasida yuzaga keladi.

Ma’lumki, shakl va mazmun har bir ma’noli birlikda dialektik aloqada bo‘ladi. Ular o‘zaro zich bog‘liq bo‘lishiga qaramay, har qaysisi o‘ziga xos ichki tuzilishga ega. Shu bilan birga, bu ichki tuzilishni bir-biridan ajratib, alohida-alohida, bir-birisiz o‘rganish ham mumkin emas. Shuning uchun F. de Sossyur lingvistik belgining ifodalovchisi bilan ifodalanmishini daftар varag‘iga o‘xshatgani holda, varaqni ko‘ndalangiga ikkiga ajratish mumkin bo‘lmaganidek, ifodalanmish bilan ifodalovchini ham bir-biridan ajratish mumkin emasligini ta’kidlagan edi [5; 70].

Ko‘rinadiki, lingvistik birliklar mohiyatini aniqlashda uning ham shakliy, ham mazmuniy jihatlariga tayangan holda ish ko‘rish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aytbayev D.T. O‘zbek tilidagi qo‘shma gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya. Folol. fan. dokt. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 77 b.
2. Карцевский С. Об асимметричном дуализме лингвистического знака. В книге: Звегинцев В.А. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях. – М.: Просвещение, 1965. – С. 85-90.
3. Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда синтактик-семантик асимметрия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б. 148.
4. Скаличка В. Асимметричный дуализм языковых единиц. Пражский лингвистический кружок. – М.: Прогресс, 1967. – С. 119-127.
5. Соссюр Ф. де. Труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1977. – С.70.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13952729>

“DUNYONING ISHLARI” ASARIDAGI LAQABLARNING LEKSIK-SEMANTIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARI

Havasxon Solixo‘jayeva

Email: solihodjayevaxavasxon@gmail.com

f.f.f.d (PhD), dotsent v.b.

Ismoilova Gulmira

NamDU 3-kurs talabasi

Email: gulmiraismoilova04@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridagi laqablarning leksik-semantik va stilistik xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: onomastika, antroponim, laqab, ortirilgan ism, xarakterlovchi, leksik-semantik.

Ismlar insonlarning ma’lum bir orzu hayollari, istaklarining mahsulidir. Qaysidir ma’noda ismlar egasining kelajagiga, taqdiriga ta’sir etadi. Shu bois o‘zbek xalqida ism qo‘yish va tanlashga alohida e’tibor qaratiladi. Biroq hayotda shunday orttirilgan nomlar borki, u insonning fe’l-atvori, xulqi, ko‘rinishi, shakl-shamoyilidan kelib chiqib shakllanadi. Bu nomlar onomastikada laqablar deb yuritiladi.

Laqablar yuzasidan tilshunoslikda turli fikr va qarashlarni kuzatish mumkin. Jumladan, A. Pashayev “Laqab shaxs ismiga tirkaladigan qo‘srimcha nom kishining biror belgisi yoki kasb-hunariga ishora qiladi¹”. E. Begmatov – “Laqablarning qo‘yilishi doimo real asosga, motivga ega bo‘ladi. Ayniqsa, bu shaxsning jismoniy kamchiligi va xarakter, xatti-harakati bilan bog‘liq laqablarda aniq ko‘rinadi”² –deya e’tirof etadi.

¹ Пашаев А. М. Прозвища в озербайджанском языке. С 6

² Begmatov E.A. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. – 55b.

Darhaqiqat, laqablar kishining ajralib turuvchi muhim belgilari asosida yuzaga kelib ismlarga yondosh sifatida ism bilan birga qo‘llanadi. Shunga ko‘ra, laqablarni orttirilgan nomlar sifatida e’tirof etiladi. Shu jihatiga ko‘ra ismlardan farq qiladi. Chunki laqablar insonning tashqi belgilari, kasb-hunari, jamiyatdagi maqomi va hokazolar orqali beriladi. Yondosh ism sifatida ijobiy yoki salbiylici bilan ajralib turadi.

Odatda, laqablarga salbiy tushuncha sifatida qaralsada, aslida laqablar yozuvchilar uchun asar qahramonlarini fe’l-atvori va xususiyatlardan darak beruvchi vazifalarni bajaruvchi birlik sifatida qimmatlidir.

Albatta, o‘zbek tilshunosligida laqablarning leksik-semantik, uslubiy xususiyatlarini tadqiqi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan muayyan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mazkur asarlarda laqablar – badiiy matnlarda yozuvchi niyatini yuzaga chiqaruvchi vosita sifadida talqin etilgan. Darhaqiqat, ma’lum bir yozuvchi yoki shoirning badiiy mahoratini ular qo‘llagan ism yoki laqablar orqali ko‘rishimiz mumkin.

Jumladan, bu borada benazir nosir, mahoratli va suyukli yozuvchimiz O‘tkir Hoshimov asarlarini ibrat maktabi sifatida e’tirof etish o‘rinlidir.

Maqolada “Dunyoning ishlari” asarida qo‘llangan laqablarning leksik-semantik va stilistik xususiyatlari tahlil qilar ekanmiz. Undagi turli personajlar va ularning hayotiy hikoyalari orqali jamiyatning turli qatlamlari aks ettirilib, berilgan laqablar orqali qahramonlar xarakteri, hayotdagи o‘rni, tana a’zolaridagi nuqsonlarini ifodalovchi muhim unsurlar sifatida lingvostlistik mahorat ila qo‘llanganligini guvohi bo‘ldik. Aslida, laqablar mazkur badiiy matnda ko‘p miqdorni tashkil etmasada o‘zining turli ma’no qirralarini ochib berishi bilan ahamiyatlidir:

No	Laqablar				
1.	<i>Muborak chevar</i>	6.	<i>Ismoil kal</i>	11.	<i>Haydar shamol</i>
2.	<i>Inoy cho ‘loq</i>	7.	<i>Isroil mo ‘ylov</i>	12.	<i>Olim parvoz</i>
3.	<i>Huri satang</i>	8.	<i>Orif shapko ‘r</i>	13.	<i>Mahmud bukur</i>
4.	<i>Hakim naynov</i>	9.	<i>Abdi aravakash</i>		
5.	<i>Naim sartarosh</i>	10.	<i>Yunus chinoq</i>		

Laqablar nutqda qo‘llanilishi, funksional shakliy belgisiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

- atoqli ot sifatida mustaqil qo‘llanuvchi laqablar;
- shaxs ismi bilan birga keluvchi laqablar¹.

Asarda har ikki guruhga mansub laqablar mayjud bo‘lib, ularni leksik-semantic va stilistik jihatdan quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin:

1. Insonlarning tana a’zolaridagi nuqsonlariga ishora qiluvchi laqablar.

Chinoq – bu leksemaning asl ma’nosini qulog‘i kesilgan, qulog‘i kemtik ma’nolarini anglatib, badiiy uslubda ham so‘zlashuv nutqida ham qulog‘i kichkina va chandiqli kishilarga nisbatan ishlatiluvchi laqab vazifasini o‘taydi.

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarida mazkur laqabga izoh berilgan o‘rinlarini ham uchratishimiz mumkin:

– *Chinoq ikkovlaring yaxshi jang qilganlaring uchun Maskovga deligat bo‘lib borasan”, desa bo‘ladimi! Yunus chinoq bir qulog‘i yo‘q bo‘lsayam xo‘p azamat yigit edi.*

Mazkur guruhga kiruchi laqab o‘ziga xosligi jihatidan ajralib turadi. Chunki ushbu laqab atoqli ot sifatida mustaqil qo‘llanib, qahramonning tashqi ko‘rinishidagi nuqsonini obrazli tarzda berishda foydalaniladi.

Kal – so‘zi sochi to‘kilgan kishilarga nisbatan laqab vazifasida ishlatiladi. Masalan:

–*Bir jo‘jaxo ‘roz bedanam bor edi desang, o‘zimam Ismoil kaldan bir qo‘yning puliga olgandim.*

Badiiy asarda bu so‘z sochi to‘kilgan so‘z birikmasi o‘rnida ishlatiladi. Demak, yozuvchi asarida ixchamlikka intilgan va tashqi qiyofasini ochib berish uchun *kal* laqabidan foydalangan.

Cho‘loq – so‘zi oyog‘i shikastlangan, oqsoq, qo‘li yoki oyog‘i yo‘q va oyog‘i siniq ma’nolari mavjud.

¹ Andaniyozova G. Laqablarning lingvopoetik xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti, 2022. – №6. – B.123.

– *Qaysi kuni Inoy cho‘loqning yil oshisida ikkita choynak yo‘qoldi, – dedi u hasrat qilib.*

Ko‘r – bu so‘zning asl ma’nosni o‘zbek tilining leksikografik manbalarida, ko‘rish qobiliyati yo‘q, so‘qir tarzida berilgan.

Bukur – so‘zi narsa yoki shaxsning qiyshiq, egri yoki bukilgan shaklni ifodalaydi.

Mahmud bukurning uylari qaysi, o‘rgilay? – dedi onam semiz xotinga iltijoli termilib.

2. Odamning eng xarakterli xususiyatini ifodalovchi va tashqi belgilariga oid laqablar.

Satang – leksemaning asl ma’nosni o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ifodalangan. Pardoz-andozga, kiyinishga zeb bergen; olifta, bashang.

– *Ho, bo‘yiz yetmagandan keyin puf sassiq bo‘ldimi! – Huri satang sumkasini ko‘tarib shaxdam odimlar bilan jo‘nab ketdi.*

Mo‘ylov – so‘zi yuqori labning ustini qoplagan mo‘ylar, murt, mo‘ylov qo‘ygan shaxs.

– *Isroil mo‘ylov hovlidagi qorni kuragan, Sepkilli xola bilan Kelinoyi “voy onamlab” yig‘lashdi...*

Naynov – leksemasi bo‘yi baland, novcha insonga nisbatan ishlatilgan.

– *Shunga qaramay, eshitishimcha, endi choyxonada Olim parvoz undoq, Hakim naynov bundoq, menam persanalniy pensiya olishim kerak, degan gaplarni aytmaydigan bo‘libdi.*

Shamol – so‘zi ko‘chma ma’noda o‘zgaruvchanlik yoki barqarorlikning yo‘qligini ifodalash uchun ishlatilishi mumkin.

– *Ertasiga uni jinnixonaga olib ketishdi. Haydar shamol bilan dadam birgalashib oborishdi.*

3. Kasb-hunarga asoslanib qo‘llaniladigan laqablar.

Chevar – bu so‘z kiyim-bosh yoki kashta tikishga usta ayol, mohir tikuvchi kabi ma’nolarni ifodalaydi.

– *Ovsinim kuyov bo‘lmishning onalari! – Atlas ko‘ylakli ayol jilmaydi.* – **Muborak chevar desangiz, hamma taniydi.** “Zinger” mashinalari bor.

Sartarosh – odamlarning soch-soqolini olish bilan shug‘ullanuvchi insonga nisbatan qo‘llanuvchi kasb-korga oid atama.

– *O‘sha yoqdan allanima deb o‘ziga-o‘zi gapirgani eshitildi... Biroq Naim sartaroshning porasi bari bir zimmamda turibdi.*


Aravakash – laqabi badiiy asarlarda ot-arava bilan yuk tashuvchi kishilarga nisbatan ishlataladi.

– *Dalavoyning avvalgi xotini Abdi degan aravakashga tegdi.*

Parvoz – leksemaning ma’nosи osmonga ko‘tarilish, uchish degan ma’noni anglatadi.

– *Gazetingda mani maqtab chiqarsang, Olim parvozga o‘xshab personalniy pensa oladigan bo‘lsam, soqolingni har kuni o‘zim op qo‘yaman.*

Yozuvchining “Dunyoning ishlari” asaridan keltirilgan misollarni quyidagi jadval orqali ko‘rishimiz mumkin:



Asarda qo‘llangan laqablarning leksik-semantik va stilistik xususiyatlarini quyidagicha belgilashimiz mumkin:

1. Laqablar muallif qahramonlarining individual xususiyatlarini ifodalash uchun xizmat qilgan.

2. Ayrim o‘rinlarda laqablar ism o‘rnida qo‘llangan (murojaat qilingan).
3. Kishilarning kasb-koriga ishora vazifasini bajargan.
4. Qahramonlarning ijobiy yoki salbiy jihatlarini yoritish xususiyatiga ega.

Demak, asardagi laqablar leksik-semantik va stilistik jihatdan chuqur ma’no anglatish, yengil kulgi, hazil-mutoyiba shaklida asar qahramonini chizish va u haqida muhim axborotlarni bilib olish uchun ishlatiladi. Kasb-hunar bilan bog‘liq berilgan ortirilgan ismlar shaxsga maxsus atab qo‘yilgan ismlar bilan birga birikma holatda keladi, inson tana a’zolaridagi biror nuqsonni ifodalovchi so‘zlardan hosil bo‘lgan laqablar ko‘p hollarda asosan qahramon portretini tasvirlashda ixchamlikka erishish uchun badiiy asarlarda qo‘llanilgan. Mazkur laqablarni lingvostilistik jihatdan mahorat maktabi sifatida e’tirof etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.A. Begmatov. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. – 55b.
2. Пашаен А. М. Прозвища в озербайджанском язмке. С 6.
3. G. Andaniyozova. Laqablarning lingvopoetik xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti, 2022. –№6. – B.123.
4. O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari qissasi – Toshkent, 2018.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13952738>

ИНТЕРФЕРЕНЦИЯ В РЕЧИ СТУДЕНТОВ И ПРИЧИНЫ ЕЕ ВОЗНИКНОВЕНИЯ

Миртурсунова Юлдуз Абдумаликовна

ТГПУ имени Низами

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются проблемы обучения русскому языку студентов-билингвов. Дается определение билингвизма, интерференции, а также классификация ошибок, являющихся результатом влияния данного явления, и предлагаются методы их преодоления.

Ключевые слова: интерференция, билингвизм, двуязычие, неродной язык, интерференционные ошибки.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ikki tilli talabalarga rus tilini o'rgatish muammolari muhokama qilinadi. Ikki tillilik, aralashish ta'rifi berilgan, shuningdek, ushbu hodisa ta'siridan kelib chiqadigan xatolar tasnifi va ularni bartaraf etish usullari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: interferensiya, ikki tillilik, ikki, ona tilidan tashqari, interferentsiya xatolari.

ABSTRACT

This article deals with the problems of teaching the Russian language to bilingual students. The definition of bilingualism, interference is given, as well as the classification of errors resulting from the influence of this phenomenon, and methods for overcoming them are proposed.

Keywords: interference, bilingualism, non-native language, interference errors.

Практика преподавания в высшем учебном заведении показывает, что для речи (как письменной, так и устной) студентов-билингвов, для которых изучаемый русский язык является неродным, вторым, характерны ошибки, вызванные интерференцией. Практически любой тип билингвизма сопровождается явлением «интерференции».

Языковая интерференция, являясь результатом контактирования элементов родного и изучаемого языков в сознании обучающихся, одинакова присуща всем индивидам, овладевающим неродным языком в процессе обучения в школе и вузе как в условиях искусственного билингвизма, так и в условиях естественной языковой среды (естественного билингвизма) за пределами вузовского обучения. Этот феномен проявляется как в устной, так и в письменной речи.

Термин «интерференция» в лингвистике был впервые использован учеными Пражского лингвистического кружка. Вслед за ними многие языковеды и сейчас трактуют интерференцию как отклонение от норм контактирующих языков в речи двухязычных людей, то есть билингвов, или более широко – как любые изменения в системе языка, возникающие вследствие его контакта с другим языком.

Речевая интерференция характеризуется разноплановостью и охватывает все ярусы языка: выделяется уровневая интерференция (звуковая, лексическая, словообразовательная, морфологическая, синтаксическая), стилистическая интерференция, ситуативная интерференция и др.

Мы считаем, что языковая интерференция, традиционно рассматриваемая как явление, присущее индивидам, изучающим иностранный язык, наблюдается и у студентов групп с русским языком обучения, изучающих русский язык в качестве родного языка, но для которых родным является узбекский язык.

Языковой контакт (или языковое контактирование) происходит на всех уровнях овладения индивидом неродным языком. На каждом уровне владения

вторым языком языковое контактирование в сознании обучающегося имеет свои особенности, которые, как правило, соответствуют степени владения им устной и письменной речью на неродном языке.

Результатом языковых контактов в сознании индивида является и речевая интерференция, которая характеризуется разноплановостью. Она охватывает все ярусы языка: выделяется уровневая интерференция (звуковая, лексическая, словообразовательная, морфологическая, синтаксическая), стилистическая интерференция, ситуативная интерференция и др.

Первой и долго присутствующей в речи на втором языке индивида является **звуковая** (или фонетико-фонологическая) интерференция, которая связана с незнанием, с несовершенным владением парадигматическими и синтагматическими свойствами фонем неродного языка как классов (совокупности) позиционных разновидностей [4].

Человек может прекрасно общаться на неродном (например, русском) языке, грамотно излагать свои мысли письменно, но в его устной речи может присутствовать звуковая интерференция.

Речевая интерференция — непостоянная категория. Это преходящее явление, т.е. чем лучше человек овладевает неродным языком, тем меньшей интерференции подвергается его речь на изучаемом языке. Речевая интерференция подразделяется на потенциальную и на фактическую интерференцию. Потенциальная интерференция — это теоретически возможный объем речевой интерференции при изучении неродного языка. Например, в тюркских языках нет губно-губных фонем <ф>, <ф’>, <в>, <в’>, поэтому все тюрки в русской речи потенциально должны их неправильно произносить.

Фактическая интерференция — это реальный объем неправильных произношений этих губно-губных фонем и их позиционных разновидностей в русской речи тюрков.

На продвинутом этапе билингвального образования появляется речевая интерференция, связанная с незнанием переносного значения лексической единицы, недопониманием контекста (смысловая или семантическая интерференция), незнанием стилистических особенностей (функционально-стилевая, эмоционально-экспрессивная окраска и т.п.), т.е. **стилистическая** интерференция.

Обучающийся уже владеет вторым языком, может читать, писать, говорить, но при этом у него наблюдаются ошибки, связанные с незнанием культурных традиций, ценностной системы того народа, для которого этот язык является родным. Это лингвокультурная интерференция, которая может изучаться как в монолингвальном, так и в би- и полилингвальном планах. **Лингвокультурная** интерференция — это объект исследования теории языка в целом и сопоставительного языкознания и сопоставительной лингвокультурологии в частности.

Национальные психообразы предметов, явлений окружающей нас действительности в сознании человека и константы национальной культуры являются источниками смысловой, а в итоге лингвокультурной интерференции, появляющейся в речи билингва на неродном языке. При билингвальном образовании процесс преодоления лингвокультурной интерференции является наиболее сложным, так как он связан с глубоким и широким знанием индивидом культуры и истории народа изучаемого языка.

Основным методом преодоления интерференции в речи двуязычных студентов был и остается **анализ результатов их речевой деятельности**, или, проще говоря, анализ ошибок в речи студентов на разных уровнях — лексическом, фонологическом, морфологическом, синтаксическом. Этот анализ следует проводить в несколько этапов. При этом необходимо учитывать, что, осваивая язык (и родной, и чужой), ошибки в речи допускают все — и монолингвы, и билингвы, поэтому не каждую ошибку в речи можно считать возникшей под влиянием чужой языковой системы.

Интерференция, по утверждению М. Джусупова, «... преходящее явление: чем лучше обучающийся овладевает неродным языком, тем меньше выражена интерференция в его речи на втором языке. Исчезает она при совершенном овладении неродным языком». [3]

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Вайнрайх У. Языковые контакты: Состояние и проблемы исследования. – Б.: БГК им. И.А. Бодуэна де Куртенэ, 2000.
2. Джусупов М. Социолингвистика, лингводидактика, методика (взаимосвязь и взаимообусловленность) // Русский язык за рубежом. 2012. № 1. С. 22—28.
3. Джусупов М. Билингвальное образование: проблема звуковой и лингвокультурной интерференции. Вестник РУДН. Серия: Вопросы образования: языки и специальность. 2017 Vol/ 14 No.3 351-358
4. Кадырова К. С. Преодоление фонетической интерференции при обучении арабскому языку в узбекской аудитории: автореф. дис... канд. пед. наук.— Ташкент, 2008.— 28 с.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13952744>

CHO'L ZONALARIDA JOYLAGHGAN KO'P QAVATLI UYLAR HOVLISINING LANDSHAFT DIZAYNINI YARATISHDA VUJUDGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA UNGA YECHIMLAR

A.A. Saidov

Prof.

Ubaydullayeva Dilafruz

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti magistri

E-mail: dilya8730@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston sharoitida ko'p qavatli uylar hovlilarining landshaft dizaynini yaratishdagi muammolar va ularning yechimlari o'r ganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, mintaqaning quruq va issiq iqlimi an'anaviy landshaft dizayn usullarini qo'llash imkoniyatini cheklaydi. Biroq, maqolada keltirilgan yechimlar, jumladan, kserofit o'simliklardan foydalanish, suvni tejovchi texnologiyalarini qo'llash, shamol va qum bo'ronlaridan himoya qilish hamda tuproqni yaxshilash orqali cho'l muhitida ham chiroyli va funksional hovlilar yaratish mumkinligi ko'rsatib berildi.*

Kalit so'zlar: *landshaft dizayni, ko'p qavatli uylar, cho'l zonasi, suv tanqisligi, yuqori harorat, shamol, tuproqning sho'rланishi, kserofit o'simliklar, tomchilatib sug'orish.*

Аннотация: В данной статье исследуются проблемы и решения, связанные с созданием ландшафтного дизайна внутренних дворов многоэтажных домов в условиях Центральной Азии, в частности, Узбекистана. Результаты исследования показывают, что сухой и жаркий климат региона ограничивает возможности применения традиционных методов ландшафтного дизайна. Тем не менее, в статье представлены решения, позволяющие создавать красивые и функциональные дворы даже в условиях пустыни, включая использование ксерофитных растений, водосберегающих технологий, защиту от ветра и песчаных бурь, а также улучшение почвы.

Ключевые слова: ландшафтный дизайн, многоэтажные дома, пустынная зона, дефицит воды, высокая температура, ветер, засоление почвы, ксерофитные растения, капельное орошение.

Abstract: This article explores the challenges and solutions associated with creating landscape designs for courtyards of multi-story buildings in Central Asia, particularly in Uzbekistan. The research findings indicate that the region's dry and hot climate limits the applicability of traditional landscape design methods. However, the article presents solutions that enable the creation of beautiful and functional courtyards even in desert environments, including the use of xerophytic plants, water-saving technologies, protection from wind and sandstorms, and soil improvement.

Keywords: landscape design, multi-story buildings, desert zone, water scarcity, high temperature, wind, soil salinization, xerophytic plants, drip irrigation.

Kirish. Hovli Markaziy Osiyo mamlakatlarida, ayniqsa O‘zbekistonda keng tarqalgan va an'anaviy me’moriy konsepsiadir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi o‘n yilliklarda haroratning keskin oshishi sabab nafaqat cho‘l zonalarida, balki normal iqlimga ega hududlarda qurilgan ko‘p qavatli uylar rejalashtirishida ham ayrim muammolar mavjudligi aniqlandi. Ma’lumki, O‘zbekiston turli iqlimga ega katta mamlakatdir, bu esa mamlakatning turli qismlarida mahalliy me’morchilikning shakllanishida tafovutlarga olib keladi. Turar-joy majmularidagi ochiq maydonlar hudud sifatini yaxshilash va aholining issiq va quruq havoga chidamliligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Rivojlanayotgan davlatlarning (O‘zbekistonda ham) cho‘l hududlarida me’moriy uslubini ikki bosiqchga ajratish mumkin. 1) Xalqaro uslub; 2) milliy o‘ziga xoslik uslubi. O‘tgan asrning 80-yillarida mahalliy turmush tarzining an'anaviy usullariga o‘ziga xos munosabatini ko‘rsatgan me’morchilik, ya’ni an'anaviy me’morchilik modernizm va zamonaviy ehtiyojlar yo‘lidan kelib chiqib loyihalashtirilgan va rivojlantirilgan, ammo hozirda o‘zining individualistik ifodasini ko‘rsatish uchun qiziqishning yangilanishini boshdan kechirmoqda. Bugungi kunda cho‘lda sanoatlashtirish va modernizm paydo bo‘lganidan beri ularning xalqining turmush tarzi o‘zgarganligi tan olingan. Bino dizayni nuqtai nazaridan, afsuski, cho‘l zonalarida oqilona me’morchilik yo‘q bo‘lib ketdi va zamonaviy me’morchilikda qo‘llanilgan uslublar natijasida hozirgi kunda ko‘plab muammolar aniqlanmoqda.

Asosiy qism. Hovlining dizayn elementlari, jumladan, shakli, o‘lchami, nisbatlari, detallari va atrofdagi devorlar, iqlim xususiyatlari va ishlatilishiga qarab farq qiladi. Bu farqlar madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar ta’sirida shakllanadi. Binoning geometriyasi, atrofdagi hududlar, shamol yo‘nalishi, quyoshning holati va soya tushishi hovlining ekologik sharoitlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Hovlini o‘rab turgan devorlarning balandligi, sirtlarning aks etishi va o‘simpliklar ham hovlining xususiyatlarini yaxshilashga ta’sir qiluvchi muhim omillardir. Hovlining geometriyasi uning issiqlik faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Hovlining maqbul dizayni uchun balandlikning uzunlik va kenglikka nisbati, shakli, geometriyasi, o‘lchami, maydoni, qavatlar soni, yo‘nalishi va soya kabi tabiiy elementlardan foydalanish kabi omillarni hisobga olish zarur.

Hovlining dizaynidagi shakli, o‘lchami va yo‘nalishi muhim ahamiyatga ega. Cho‘zilgan va chuqur hovlilar energiya sarfini kamaytirsa, sayoz hovlilar qishda quyoshdan ko‘proq issiqlik olish imkonini beradi. Binolarni joylashtirish va hovlining to‘g‘ri yo‘nalishi ham uning samaradorligiga ta’sir qiladi. Devorlarning joylashuvi va balandligi hovli va xonalarning haroratini belgilaydi. Hovlining yo‘nalishi iqlim sharoitlari, quyoshdan olinishi kerak bo‘lgan issiqlik miqdori, kerakli soya va shamollatish darajasiga bog‘liq. Bino joylashuvi shamol tezligi va shamollatishga ta’sir qilib, haroratni sezilarli darajada pasaytirishi mumkin.

Xorij va mahlliyl tadqiqotlarni tahlilidan kelib chiqib , aytish mumkinki, cho‘l zonalaridagi ko‘p qavatli uylar hovlilarining landshaft dizaynnini yaratish o‘ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Noqulay iqlim sharoiti - yuqori harorat, suv tanqisligi, kuchli shamollar va tuproqning sho‘rlanishi kabilari - an’anaviy landshaft dizayn uslublarini qo‘llash imkoniyatini cheklaydi. Biroq, bu muammolarni bartaraf etish va cho‘l muhitida ham chiroyli va funksional hovlilar yaratish uchun bir qator yechimlar mavjud.

- 1) *Suv tanqisligi muammosi va uning yechimlari:* Suv resurslarining cheklanganligi cho‘l zonalaridagi landshaft dizaynining asosiy muammolaridan biridir. Bu muammoni hal qilish uchun quyidagi choralarni ko‘rish mumkin:

- a) Kserofit o'simliklardan foydalanish: Qurg'oqchilikka chidamli va suvni kam talab qiladigan kaktus, sukkulent va boshqa kserofit o'simliklarni tanlash hovlining ko'kalamzorlashtirilishida suvni tejash imkonini beradi.
- b) Tomchilatib sug'orish tizimini o'rnatish: Bu tizim suvni bevosita o'simlik ildiziga yetkazib berish orqali suv isrofgarchilagini kamaytiradi va o'simliklarning samarali sug'orilishini ta'minlaydi.
- c) Yomg'ir suvini yig'ish va qayta ishlatalish: Yomg'ir suvini maxsus rezervuarlarda yig'ish va uni sug'orish uchun qayta ishlatalish suv resurslaridan oqilona foydalanishga yordam beradi.
- 2) Yuqori harorat va kuchli shamollar muammosi va uning yechimlari: Jazirama issiq va kuchli shamollar o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu muammoni hal qilish uchun:
- a) Shamoldan himoya qiluvchi to'siqlar qurish: Hovli atrofiga daraxtlar yoki butalar ekish yoxud maxsus to'siqlar o'rnatish shamolning kuchini kamaytiradi va o'simliklarni himoya qiladi.
- b) Soyabon joylar yaratish: Pergolalar, soyabonlar yoki daraxtlar ekish hovlida salqin va qulay joylar yaratishga yordam beradi, bu esa o'simliklarni quyoshning kuchli nurlaridan himoya qiladi.
- 3) Tuproqning sho'rlanishi muammosi va uning yechimlari: Cho'l tuproqlarining sho'rlanishi o'simliklarning normal o'sishiga to'sqinlik qiladi. Bu muammoni hal qilish uchun:
- a) Tuproqni yaxshilash: Tuproqqa organik o'g'itlar va kompost qo'shish uning sifatini oshiradi va sho'rlanish darajasini kamaytiradi.
- b) Sho'rlangan tuproqqa chidamli o'simliklarni tanlash: Ba'zi o'simliklar sho'rlangan tuproqqa yaxshi moslashgan bo'ladi va bunday sharoitlarda ham o'sib rivojlna oladi.
- 4) Qum bo'ronlari muammosi va uning yechimlari: Qum bo'ronlari hovlining landshaft dizayniga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Buning oldini olish uchun:
- a) Qum to'siqlari o'rnatish: Hovli atrofiga qum to'siqlari o'rnatish yoki qumni ushlab turuvchi o'simliklar ekish qum bo'ronlarining salbiy ta'sirini kamaytiradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning o'ziga xos iqlim sharoitida joylashgan ko'p qavatli uylar hovlilarining landshaft dizaynnini yaratishda an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, innovatsion va moslashuvchan yechimlarni qo'llash lozim. Suvni tejaydigan texnologiyalar, qurg'oqchilikka chidamli o'simliklarni tanlash, shamol va qum bo'ronlaridan himoya qilish hamda tuproqni yaxshilash kabi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali nafaqat chiroyli va

ko‘rkam, balki ekologik jihatdan barqaror va resurslarni tejaydigan hovlilar yaratish mumkin. Shuningdek, hovlining dizaynida uning shakli, o‘lchami, yo‘nalishi va binolarning joylashuvini hisobga olish ham muhim ahamiyatga ega. Bu kabi me’moriy yechimlar hovlining issiqlik samaradorligini oshirish, yoz oylarida salqinlikni ta’minlash va qishda quyosh energiyasidan maksimal darajada foydalanish imkonini beradi. Umuman olganda, ushbu tadqiqot natijalari shaharsozlik va me’morchilik sohasidagi mutaxassislariga O‘zbekistonning turli hududlarida joylashgan ko‘p qavatlari uylar hovlilarining landshaft dizaynnini yaratishda foydali ma’lumot va amaliy tavsiyalar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [Elektron resurs] “O‘zbekiston respublikasida landshaft dizaynni rivojlantirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 223-son Qarori: Doimiy havola: <https://lex.uz/en/docs/-2223599>
2. Balgaeva Sh. O‘zbekiston qishloqlarida landshaft arxitekturasini shakllantirish. O‘quv qo‘llanma. –Samarqand, 2021.
3. Donham, D. The courtyard house as a temperature regulator // The New Scientist. –1960. –№ 8. –P. 663-666.
4. Isamuhamedova D.U., Adilova L.A. Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi. –Toshkent: Cho‘lpon, 2009.
5. Kasmai, M.; Ahmadinezhad, M. Climate and Architecture; Khak Nashr: Tehran, Iran, 2003.
6. Omar Al-Hafith. Simulation of courtyard spaces in a desert climate // Energy Procedia. – 2017. – P.21-24.
7. Tavassoli, M. Organic unity between urban and architectural elements: Urban blocks, courtyard houses, ivans, domes, and wind catchers. In Urban Structure in Hot Arid Environments; Springer: Cham, Switzerland, 2016. –P. 107–138.

TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	Akbarova, N. R. (2024). O'ZBEKISTONDAGI TA'LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISH. GOLDEN BRAIN, 2(18), 4–7. <u>https://doi.org/10.5281/zenodo.13923994</u>
2	Mukhametov, A. M. (2024). SCIENTIFIC-METHODICAL BASES OF LOAD STANDARDIZATION IN MASS SPORTS HEALTH TRAINING. GOLDEN BRAIN, 2(18), 8–14. <u>https://doi.org/10.5281/zenodo.13924001</u>
3	Юлдашева, Д., Мамаджанова, Д., Билолова, М., Эркинова, Х., & Абдулбориева, Х. (2024). НОВЫЙ ПОДХОД К ДОШКОЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ. GOLDEN BRAIN, 2(18), 15–20. <u>https://doi.org/10.5281/zenodo.13924009</u>
4	Ataullayev, F. F. o'g'li . (2024). SUV DIPLOMATIYADA XALQARO MINTAQAVIY ISHLAR VA ULARNING RIVOJI. GOLDEN BRAIN, 2(18), 21–27. <u>https://doi.org/10.5281/zenodo.13924017</u>
5	Hamrayev, M. A. (2024). O'ZBEK TILIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKlar TASNIFI. GOLDEN BRAIN, 2(18), 28–31. <u>https://doi.org/10.5281/zenodo.13924027</u>
6	Isroilova, R. J. qizi . (2024). O'ZBEKISTON FOTOGRAFIYA SANATINING VUJUDGA KELISHI. BIRINCHI O'ZBEK FOTOGRAFI. GOLDEN BRAIN, 2(18), 32–36. <u>https://doi.org/10.5281/zenodo.13924037</u>
7	Нарбаева, Г. Х. (2024). ГЕНДЕРНЫЕ РОЛИ ЖЕНЩИНЫ ПОСРЕДСТВОМ КОНЦЕПтуальных МЕТАФОР В ИСПАНСКОМ, РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ. GOLDEN BRAIN, 2(18), 37–41. <u>https://doi.org/10.5281/zenodo.13924045</u>

8

Rashidova, S. M. qizi . (2024). REALIYA LINGVOKULTUROLOGIYANING ASOSIY TUSHUNCHALARIDAN BIRI SIFATIDA (U.AZIM "SO'NGSO'ZLAR" ASARI MISOLIDA). GOLDEN BRAIN, 2(18), 42–48. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13924054>

9

Ergashov, J. (2024). THE ROLE OF UNIVERSITIES IN THE NATIONAL PROJECT "GREEN SPACES" AND "GREEN ENERGY". GOLDEN BRAIN, 2(18), 49–54. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13924064>

10

Xalilov, I. F. (2024). LOYIHA BOSHQARUVIDA PUL OQIMLARINI TAHLIL QIISHNING OBYEKТИV ZARURLIGI VA USLUBIY ASOSLARI. GOLDEN BRAIN, 2(18), 55–60. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13924073>

11

Odinaev, N. R. (2024). ISSUES OF UZBEKISTAN'S ACCESSION TO WTO AND ENHANCING INTERNATIONAL TRADE. GOLDEN BRAIN, 2(18), 61–77. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13924079>

12

Yo'ldosheva, N., & Hamrayev, M. A. (2024). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK IJODIDAN FOYDALANISH. GOLDEN BRAIN, 2(18), 78–83. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13924081>

13

**Mukhametov, A. M. (2024). CHOICE OF MOTOR LOADS IN FITNESS EXERCISES. GOLDEN BRAIN, 2(18), 84–87.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.13924087>**

14

Pardayev, B. (2024). O'QUVCHILAR IJTIMOYLASHUVINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. GOLDEN BRAIN, 2(18), 88–95. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13924093>

15

**Sattorova, X. J. (2024). BOSHLANG'ICH SINFLARDA UNLI VA UNDOSH TOVUSH VA HARFLARNI O'RGANISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH. GOLDEN BRAIN, 2(18), 96–101.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.13924109>**

16

Юлдашева, Д. М. (2024). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО И ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ. GOLDEN BRAIN, 2(18), 102–107.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13924112>

17

Aytbaeva, G. Y. (2024). TOLERANTLIK – TAFAKKURI KO'P QIRRALI JARAYON. GOLDEN BRAIN, 2(18), 108–112.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13952605>

18

Saidov, A. A., & Ubaydullayeva, D. (2024). CHO'L IQLIMI VA ZAMONAVIY TURAR JOYLAR: KO'P QAVATLI UYLAR HOVLISINI LOYIHALASHDA LANDSHAFT DIZAYNINING AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 2(18), 113–117. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13952642>

19

Aytbayev, D. T. (2024). BELGINING ASIMMETRIK DUALIZMI. GOLDEN BRAIN, 2(18), 118–122. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13952668>

20

Solixo'jayeva, H., & Ismoilova, G. (2024). "DUNYONING ISHLARI" ASARIDAGI LAQABLARNING LEKSIK-SEMANTIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARI. GOLDEN BRAIN, 2(18), 123–128.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13952729>

21

Миртурсунова, Ю. А. (2024). ИНТЕРФЕРЕНЦИЯ В РЕЧИ СТУДЕНТОВ И ПРИЧИНЫ ЕЕ ВОЗНИКОВЕНИЯ. GOLDEN BRAIN, 2(18), 129–133.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13952738>

22

Saidov, A. A., & Ubaydullayeva, D. (2024). CHO'L ZONALARIDA JOYLAGAN KO'P QAVATLI UYLAR HOVLISINING LANDSHAFT DIZAYNINI YARATISHDA VUJUDGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA UNGA YECHIMLAR. GOLDEN BRAIN, 2(18), 134–138.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13952744>